

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Namangan Davlat universiteti

Fizika-matematika fakulteti

Umumtexnika fanlari va kasb ta'limi kafedrası

5142000-Mehnat ta'limi yo'nalishi 407-guruh bakalavriat

bosqichi bitiruvchisi

Boltiboyeva Dilafro'z Komiljanovnaning

**“O’QUVCHILARNI DARSDAN TASHQARI
TADBIRLARDA BADIY ASARLARDAN
FOYDALANIB KASBGA YO’NALTIRISH”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKA ISHI

Ilmiy rahbar:

fiz.-mat.f.n., dotsent Nugmanov D.L.

Taqrizchilar:

ped.f.n., dotsent Akramov X.M.

fiz.-mat.f.n., dotsent Xusanov A.J. (QDPI)



Namangan-2012

BITIRUV MALAKAVIY ISH REJASI

I. Kirish

- 1.1. Buyuk kelajak sari.
- 1.2. Mavzuning dolzarbligi.
- 1.3. Adabiyotlar tahlili.

II. Nazariy qism

- 2.1. O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'llash.
- 2.2. Darsdan tashqari tadbirlarda badiiy asarlardan foydalanib o'quvchilarni kasbga yo'naltirish
- 2.3. Ilg'or pedagogik texnologiyalar haqida.

III. Metodika qismi

- 3.1. Mehnat ta'limi dars mashg'ulotlarining huquqiy-meyoriy hujjatlari.
- 3.2. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda samaradorlikni oshirish uchun tayyorlangan ko'rsatmali materiallar.
 - 3.2.1. Tayyorlangan plakatlar.
 - 3.2.2. Tayyorlangan tarqatmali materiallar.
- 3.3. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha darsdan tashqari tadbir ssenariysi.

IV. Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilova

INTERNET materiallari.

KIRISH

1.1. Buyuk kelajak sari.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida global inqiroz tufayli yuzaga kelgan ishsizlik darajasi, tashqi qarzlar, byudjet va to'lov balansi taqchilligining o'sishi kabi jiddiy makroiqtisodiy muammolar o'z yechimini to'liq topmasdan, hamon saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, bu jarayon iqtisodiyoti o'zaro bog'liq bo'lgan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda og'ir kechmoqda.

Jahonda islohotlarning "O'zbek modeli" sifatida e'tirof etilgan rivojlanish modelini amalga oshirish tufayli, davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida pespublikamiz xalq xo'jaligi rivojlanishining yuqori sur'atlari saqlanib qolmoqda.

2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi Dasturga kiritilgan investitsiya loyihalarining o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Investitsiya loyihalarini faol amalga oshirish o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 8 foizga o'sishini va 2,3 milliard dollardan ortiq miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ta'minladi [4].

Xalqaro valyuta fondining xulosasiga ko'ra mamlakatimizda so'nggi 5 yil mobaynida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi o'rtacha 8,5%ga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich 2011-yilda 8,3%ga teng bo'lgan bo'lsa, 2012-yilda 8,5% o'sish ko'rsatkichiga erishish mo'ljallangan.

I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday degan edi: "Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan, iqtisodiyotimiz va uning yetakchi taqmoqlarini tubdan modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga qaratilgan zamonaviy yuksak texnologiyalar va innovatsiyalarni jalb etish dasturini amalga oshirish eng muhim ustuvor yo'nalishdir. Bizning xalqimiz, keyingi yigirma yil davomida voyaga yetgan navqiron avlodimiz hozirgi vaqtda ertangi kelajagimizga katta ishonch bilan qaramoqda" [3].

I.A.Karimov o'z nutqida aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha shunday degan edi: "Aholimizni ish bilan ta'minlash, uning daromadlarini yanada oshirish, barqaror hayotimizni yanada mustahkamlashdek o'ta dolzarb masalalarni hal qilishda alohida o'rin egallab borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga yangi turtki berish, bu soha oldida turgan to'siqlarni bartaraf qilish kerak" [3]. Yurtimizda sanoatni rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini ko'paytirish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini takomillashtirish bo'yicha turli xil loyihalar ishlab chiqarishga keng joriy etilmoqda. Xususan, kasanachilikning mehnat bozoridagi ishtiroki tobora kuchaymoqda. Bu esa ayollar, ko'p bolalili uy bekalarining salmoqli qismini kasanachilikka jalb etish imkonini bermoqda.

Xalq xo'jaligidagi yetakchi sohalarning rivojlantirilayotgani, ko'plab yangi korxonalarining barpo etilayotgani va ishga tushirilayotgani tufayli yangi-yangi ish o'rinlari tashkil etilib, aholining mehnatga layoqatli qismi, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlashga erishilmoqda. Mustaqil diyorimizda yigit-qizlarning mustahkam bilim olishlari bilan bir qatorda ularning kasb-hunar o'rganishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Ta'lim tizimi rivojiga, xususan, yoshlarni hayotga tayyorlashga juda katta mablag' sarflanmoqda.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligining izchil va barqaror rivojlanib borishi tinchlik va osoyishtalik tufaylidir. 9-may-"Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan poytaxtimizning Xotira maydonida o'tkazilgan tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi jahon urushi va uning oqibatlari haqida fikr yuritarkan, shunday dedi: "Bugungi kunda O'zbekistonimiz erishayotgan, dunyo tan olayotgan marralar haqida so'z yuritganda, ularga zamin bo'lgan ko'pgina sabablarni keltirish mumkin. Lekin xalqimiz qo'lga kiritgan bu natijalarning negizida turgan asosiy omil - buni bugun hech kimga tushuntirib berishning hojati yo'q, deb o'ylayman - mustaqillik davrida odamlarimizning dunyoqarashi, hayotga, mehnatga, o'z kasbiga bo'lgan munosabati keskin o'zgarib borayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda" [6].

Kelgusi yilda uy mehnati va kasanachilikni rivojlantirish orqali ikki yuz mingtadan ortiq ish o'zni tashkil etish rejalashtirilgan. To'qimachilik, tikuvchilik, charm-poyafzal, mebel, oziq-ovqat, kimyo, mashinasozlik, elektrotexnika, aloqa, xizmatlar va servis sohalaridagi korxonalarda kasanachilik ish o'rinlari ochiladi. Oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik va pudrat asosidagi uy mehnatini rivojlantirish orqali 165 ming kishining bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan. "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi tadbirkorlik va bandlikning huquqiy asoslari yanada mustahkamlanishiga, yangi ish o'rinlari ochilishiga zamin yaratadi. Qishloq ho'jaligida chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, bog'dorchilik, sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda yangi ish o'rinlarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Bu esa aholi bandligi va daromadlarini oshirish bilan bir qatorda, meva-sabzavot, kartoshka, uzum va poliz mahsulotlari, tuxum, sut hamda go'sht mahsulotlarini ko'paytirishga xizmat qiladi.

O'tgan davr mobaynida yurtimiz qiyofasi tanib bo'lmay darajada o'zgardi. Zamonaviy me'morchilik asosida qurilayotgan inshootlar, ijtimoiy obyektlar, san'at va madaniyat saroylari, ilm-ma'rifat maskanlari mehnatkash xalqimizning fidoiyligini namunasini namoyot etmoqdalar. Mustaqillikning 20 yilligi arafasida ko'plab yangi ishlab chiqarish korxonatlari, xususan, qo'shma korxonalar bunyod etildi. Toshkent shahrida "Ma'rifat markazi" majmui qad rostlagan. Ushbu binoda xalqaro simpoziumlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi joylashtirildi. "Ma'rifat markazi" yoshlarni buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar etib tarbiyalashda, ularni begona g'oyalar, "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan himoyalashda va har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazishda munosib o'rinni egallaydi.

"Sog'lom ona-sog'lom bola" mavzuidagi xalqaro simpozium" qatnashchisi Jorj Krol (AQSHning O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi) yurtimizdagi yaratuvchilik ishlari haqida shunday dedi: "Kutubxonalar jamiyatda muhim ahamiyat kasb etadiki, ular ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida odamlarga o'z bilimlari darajasini oshirish, tevarak atrofda kechayotgan jarayonlarni yaxshiroq idrok etish, o'zlarini o'rab turgan barcha voqeliklarni teranroq bilishlariga ko'maklashadi. Ushbu mahobatli "Ma'rifat markazi" binosiga maftun bo'lganimni izhor etaman. Toshkent aholisi va O'zbekiston xalqi mazkur boy ma'lumotlar bazasiga ega bo'lganidan mamnunman. Bularning barchasi O'zbekistonda madaniyat, ilm-fan va ta'limni yanada rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotganiga sira shubha yo'q" [8].

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini izchil amalga oshirish natijasida respublikada birlamchi tibbiy sanitariya yordamini ko'rsatish, qishloq vrachlik punktlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlaridan boshlab, murakkab yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarigacha barcha darajalarni qamrab olgan aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning yaxlit tashkiliy tuzilmasi yaratildi [5]. Mustaqillik yillarida olib borilayotgan ulkan ishlar tufayli bolalar va onalar o'limi keskin qisqardi, aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 73 yoshga, ayollarda esa 75 yoshga yetdi.

"Sog'lom ona-sog'lom bola" mavzuidagi xalqaro simpozium" qatnashchisi Muhammad Al-Muhayribiy (Birlashgan Arab Amirliklarining O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi) yurtimizda Onalar va bolalar salomatligi xususida olib borilayotgan ishlar haqida shunday dedi: "Mamlakatda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga katta e'tibor qaratilayotir. Butun respublikada keng miqyosida umumta'lim va sport maktablarini, kasb-hunar kollejarini, eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan sog'liqni saqlash muassasalarini bunyod etish ishlari olib borilmoqda" [8].

O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra 1-yanvar 2012-yilda O'zbekiston aholisi 29 559 000 kishini tashkil etgan. Ularning 51%i, ya'ni 15 696 000 kishi shaharlarda, 49%i, ya'ni 14 489 500 kishi qishloqlarda yashaydi. Prezident I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining yig'ilishidagi nutqida ta'kidlashicha, mamlakat aholisining o'sish darajasi yiliga 1,5%ni tashkil etmoqda va joriy yilning oxirigacha 30 000 000 kishidan oshadi. Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 64 foizni tashkil etadi. Shu ma'noda aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlar bilan bogliq masala ustuvor

yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Agar o'zbek oilalarining milliy mentalitetimizga ko'ra ko'p bolali ekanligini e'tiborga olsak, mamlakat aholisining yarmidan ko'p qismini yoshlar tashkil etishi ayon bo'ladi. Yurtimizda yoshlarga ko'rsatilayotgan beqiyos e'tibor bugun o'zining yuksak samaralarini bermoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga keng e'tibor qaratilayotgani quvonarlidir. Bunday imkoniyatlar ularning ertangi kunga ishonchini oshirib, yurtimiz ravnaqi yo'lida astoydil mehnat qilishlari uchun munosib asos vazifasini o'taydi.

Yoshlarimizni zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirish, kasb-hunarga yo'naltirish, ma'naviy dunyoqarashlarini kengaytirish, ilm-fan, san'at va sport kabi yo'nalishlarda havas qilsa arzigulik yutuqlarni qo'lga kiritishlari uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Kelajak sari intilayotgan navqiron avlodga g'amxo'rlik ko'rsatish yurtimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Buning tasdig'i sifatida ta'lim tizimi rivoji uchun amalga oshirilayotgan islohotlar, joylarda bunyod etilgan o'quv maskanlari, iqtidor va qobiliyatni keng miqyosda namoyon etish uchun yosh avlodga yaratib berilayotgan beqiyos imkoniyatlarni sanab o'tish mumkin.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli kitobida shunday degan edi: "Yoshlar bilan ishlashda ham yangi yondashuvlar kerak..." [1].

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi asosida amalga oshirilayotgan ishlar yoshlarimizga ta'lim-tarbiya berish va kasb-hunar o'rgatish orqali ularni hayotga tayyorlash hamda oxir-oqibat ish bilan ta'minlash, sog'ligini asrab-avaylash, ma'naviyatini yuksaltirish, qobiliyati va iqtidorini rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Unga asosan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirilmoqda:

- yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirish;
- yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish;
- yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish tizimini yaratish;
- barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida zarur ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

Yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odan, an'ana va qadriyatlarining hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini ochib berishga qatartilgan suhbatlar va uchrashuvlar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish [7] yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega.

1.2. Mavzuning dolzarbligi

"Chindan ham, agarki hozirgi vaqtda dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib, ularga mahliyo bo'lib yashaydigan bo'lsak, ana shu noyob merosni asrab-avaylab, yanada boyitib, unga o'z hissamizni qo'shmasak, zamon bilan hamqadam bo'lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o'rin egallashimiz qiyin bo'ladi" [2].

Bugungi kunda mehnat ta'limini o'qitishga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda zamonaviy ma'lumotlarga asoslangan dars mashg'ulotlarini o'tishga katta e'tibor berilmoqda. O'quvchilarni kasbga yo'llash ishlarini tashkil etishda dars mashg'ulotlari va darsdan tashqari tadbirlarda amalga oshirish uchun o'quv uslubiy materiallarni ishlab chiqishga katta zarurat tug'ilmoqda.

Mehnat ta'limi darslarini ta'komillashtirish, o'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish mehnat ta'limi dars mashg'ulotlari va darsdan tashqari tadbirlarga oid masalalar yurtimizning bir qator pedagog olimlari tomonidan ko'rib chiqilgan. N.Azizho'jayeva, J.Yo'ldoshev kabi olimlar

ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning uslubiy tomonlarini yoritib berishgan [9].

Shuningdek, mehnat ta'limi dars mashg'ulotlarini o'tishga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari har tomonlama o'rganilgan va bir qator tavsiyalar berilgan holda mehnat ta'limi va o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulot, tadbirlarni o'tkazish bo'yicha hali ishlar yetarli emas. Vaholanki, barcha fanlar qatori mehnat ta'limi o'quv fani bo'yicha ham darsdan tashqari juda ko'plab shakldagi tadbirlarni o'tkazish va shu orqali o'quvchi yoshlarni hayotga, hususan, kasb tanlashga yo'llash uchun katta imkoniyatlar mavjud. So'nggi yillarda mamlakatimiz nashriyotlari ko'plab adiblarimizning badiiy asarlarini chop etib keng kitobxonlar ommasiga havola etmoqda. Ayniqsa, bolalar, o'quvchi yoshlar uchun badiiy asarlar, teleko'rsatuvlar, milliy seriallarning ko'payib borishi ushbu mavzuni tanlab olishda o'ziga hos turtki bo'ldi.

Ana shu mulohazalardan kelib chiqib biz bitiruv malakaviy ishi uchun **“O'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarda badiiy asarlardan foydalanib kasbga yo'llash”** mavzusini tanlab oldik.

O'quvchilarni to'g'ridan-to'g'ri, obrazli aytganda quruqdan-quruq kasbga yo'llashga qaraganda ularni boy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, milliy o'zligimizni anglash orqali kasbga yo'naltirsak ishimizning samarasi yanada yuqori bo'ladi, deb hisoblaymiz. Oldimizga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish mavzuning dolzarbligini bildiradi.

Tadqiqot maqsadi:

- 8-sinf mehnat ta'limida o'quvchilarni kasbga yonaltirishda darsdan tashqari tadbirlarni qanday tashkil etishni o'rganish;
- qaysi badiiy adabiyotlardan foydalanish yuqori natijalarga olib kelish mumkinligi haqidagi uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalarni maktab amaliyotiga joriy etishni asoslash.

Tadqiqotni ilmiy farazi:

- mehnat ta'limidan darsdan tashqari tadbirlarni o'tkazishda badiiy adabiyotlardan keng foydalanilsa, o'quvchilarda kasblarni egallashga intilish, kasb tanlash, milliy hunarmandchilik, oilaviy kasanachilik va zamonaviy kasblarga qiziqtirishda samaralilik ortadi.

Tadqiqot vazifalari:

- o'quvchilarni kasbga yo'llashda eng ma'qbul bo'lgan badiiy asarlarni tanlash;
- tanlangan badiiy asarlarda qahramonlarning kasblari, qayd etib o'tilgan kasblar, mashg'ulot turlari va boshqalarni o'rganish va tartiblashtirish hamda tavsiyalarni tayyorlash;
- mehnat ta'limidan darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish va ularni o'tkazish tartiblarini ishlab chiqish;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha darsdan tashqari tadbirlarni o'tkazish va shu asosda tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqot predmeti:

- umumta'lim maktablari 8-sinfida mehnat ta'limidan o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'limiga oid ma'lumotlarning mazmuni.

Tadqiqot obyekti:

- umumta'lim maktablari 8-sinfida mehnat ta'limidan darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar.

Tadqiqot metodi:

- mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar, vaqtli matbuot nashrlari va boshqalarni o'rganish va tahlil etish;
- darsdan tashqari tadbirlarning qanday o'tkazilishini kuzatish;
- umumta'lim fanlari o'qituvchilari va o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish.

Tadqiqotning metodologik asosi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning sohaga oid nutq va asarlari;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta'lim to'g'risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Qonunlari, ta'lim-tarbiyaga oid direktiv hujjatlar;
- mehnat ta'limi uzviylashtirilgan Davlat ta'limi standarti va boshqalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- o'quvchilarni mehnat ta'limidan darsdan tashqari tadbirlarda kasbga yo'llash bo'yicha tavsiyalarining ishlab chiqilganligi;
- o'quvchilarni kasbga yo'llashga oid badiiy adabiyotlar asosida tavsiyaning ishlab chiqilganligi;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

- o'quvchilarni kasbga yo'llashda badiiy adabiyotlardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlarning to'planganligi;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha ko'rsatma va tarqatma materiallarning ishlab chiqilganligi.

Natijani joriy etish bo'yicha tadqiqot ishlari Namangan Davlat universiteti Umumtehnika fanlari va kasb ta'limi kafedrasi hamda Namangan shahridagi 13-umumta'lim maktablarida o'tkazildi.

Ishning sinovdan o'tishi (aprobatsiyasi). Bitiruv malakaviy ishining asosiy natijalari Namangan Davlat universiteti Umumtexnika fanlari va kasb ta'limi kafedrasi yig'ilishlarida, kafedraning o'qituvchilari va talabalari o'rtasida muhokama etilgan va ma'qullangan.

1.3. Adabiyotlar tahlili

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha mehnat ta'limi doirasida o'quvchilar uchun nashr etilgan o'quv adabiyotlari hali yetarli emas. Shu bois biz O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashhis markazi" tayyorlagan tavsiyalar, oliy o'quv yurtlari uchun tavsiya etilgan o'quv-uslubiy adabiyotlar, "Mehnat va hayot" ilmiy-ommabop jurnallarining bir qator sonlarini o'rganib chiqish bilan cheklandik.

"Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish yuzasidan maktab direktorlari kasb-hunarga yonaltiruvchilar va sinf rahbarlari uchun tavsiyalar" nomli qo'llanmada maktab direktori, kasb-hunarga yo'naltiruvchi, sinf rahbarlari va kasb-hunarga yo'naltirish komissiyasining vazifalari hamda o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bilan hamkorlikda olib boriladigan tadbirlar to'g'risida, namunaviy ish rejalar, sinf rahbarlari tomonidan o'tkaziladigan ota-onalar yig'ilishi ssenariysi, tarbiyaviy ish soat ishlanmasi, "Kasblar festivali" dasturlari yoritilgan bo'lib, ular umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini yanada jonlantirishga qaratilgan. Qo'llanmadan maktab direktorlari, kasb-hunarga yo'naltiruvchilar, sinf rahbarlari o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin [10].

"O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda qo'llaniladigan psixologik- pedagogik tashxis metodikalari" nomli qo'llanma o'quvchilarning ongli kasb tanlashga tayyorlashning psixologik omillari, qiziqishlar xaritasi, kasbiy faoliyatning asosiy motivlari, differentsial-diagnostik so'rovnoma, o'quvchilarning kasbga yo'nalganligini aniqlash, shaxs tiplari va ularga mos kasblarni aniqlash, shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari (KTQ)ni o'rganish usuli, qiziqishlar xaritasi haqida ma'lumotlar berilgan [11].

G.Burxanovanning "Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari va amaliyotchi psixologlari uchun psixologik-pedagogik tashxis daftarini yuritish yuzasidan tavsiyalar" qo'llanmasi umumta'lim maktablari va amaliyotchi psixologlari, maktab psixologlari va boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan. Qo'llanmadagi tavsiyalar 1-3 sinf o'quvchilarining yosh davri, individual-psixologik hususiyatlarini inobatga olgan holda tashxis daftarchasini yuritishga yordam beradi. Qo'llanmada o'quvchilarning qiziqishini, qobiliyatini, layoqatini va boshqa individual sifatlarini shakllantirishning psixologik qonuniyatlarini bilish to'g'risida tavsiyalar berilgan [12].

Umumta'lim maktablarida o'quv yili boshlanishida yil oxirini kutmasdan 1-9-sinf o'quvchilarining xususiyatlaridan kelib chiqib, kasbiy suhbat, ekskursiyalar, uchrashuvlar, tadbirlar va bir-birini takrorlamaydigan tadbirlarni rejalashtirishlari kerak. Har bir fan oqituvchisi oquvchini oz qiziqishi, kasbiy moyilligi va qobiliyatlariga qarab kasbga yo'naltirish ishlarini rejalashtirishi va amalga oshirishi kerak. Maktab xodimlari o'quvchida yuzaga chiqayotgan

qiziqish va paydo bo'layotgan yo'nalishi orqali maktabda to'garak ochilishi yoki yaqin atrofdagi shu yo'nalish asosidagi to'garak bo'lsa maslahat berishi, berilgan maslahat birinchisini davomi bolishi kerakligi haqida tushuntirib berishi lozim [13].

A.Shukurov va B.Ashurovlarning "Tarixiy mavzudagi dasturlarda kasb-hunarning ulug'lanishi" nomli maqolasida biz tanlagan mavzuga nisbatan yaqin fikrlar bayon etilgan. Adabiyot darslarida badiiy asarlardan foydalanib o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish mumkin. O'quvchilar badiiy asarlarni o'qiganlarida o'zlarini o'sha asar qahramonidek xis etadilar. Natijada oquvchini hayotga qiziqishi yanada kuchayadi. Shundan foydalanib adabiyot fani o'qituvchisi yoki mehnat o'qituvchisi, kasb-hunarga yo'naltiruvchi o'quvchilarni tarixiy mavzudagi she'riy to'plam, doston va asarlarda kasbga bo'lgan ehtiyojlarni rivojlantirish haqida fikrlar berilgan. Maqola davomida muallif bir qator asarlarni tahlil etadi.

Alisher Navoiy quyidagi baytlariga yoshlarni kasb-hunar egallashga yo'llaydi:

Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tuproqqami ketgumdir oxir.

Bu baytlarida Alisher Navoiy odamlarni mehnat va turli kasb-hunarlarni kelgusi avlodga o'rgatishga undagan. O'zbek xalq dostonlari, asarlarida, mehnatsevarlik, mehnatni ulug'lash kabilar haqida fikr yuritilgan. Jumladan, Mirmuxsinning "Shiroq", A.Oripovning "Hakim va ajal", Muhammad Alining "Gumbazdagi nur", B.Boyqobilovning "Tojmahal" kabi asarlarida jangovor mahorat, kasbga sodiqlik kabilar yoritilgan.

A.Oripovning "Hakim va ajal" nomli asarida Ibn Sino o'z asarlarida kasbga sodiqlik, mehnatsevarlikni ulug'lab o'tganliklari, Muhammad Alining "Gumbazdagi nur" asarida Amir Temurning "Bizning kimligimizni biz qurgan binolarda ko'ring" deb yuritgan fikrlarida me'morchilik kasbini ulug'laydi. B.Boyqobilovning "Tojmahal" asarida kasb-hunarga oid Go'ri Amir minoralari, madrasa, minor, muhandis, me'mor, naqqosh, koshintarosh, ganchkor, gilkor, sartarosh, loy pishitish, g'isht pishitish, chang, sopol, naykamalak, jilo, zarhal, gumbaz, maqbara, imorat, ketmon, bo'yoq, devor, pay tesha, ishchi, usta, poydevor va boshqa so'zlariga alohida urg'u berib o'tilganligini ta'kidlaydi.

Dehlining sangtaroshlari tosh kushandasi bekan,
Olmos randasi bilan ko'zguday silliq qilib,
Ishning ko'zini bilib xunarin qab namoyish,
Toshga berib oroyish, dog'da qo'yib zargarni,
Taroshlardi marmarni.

satrlari "Tojmahal" dostonidan olingan bo'lib, o'quvchi yoshlarni kelajakka intilish, kasbga yo'naltirish, layoqatli, qobiliyatlarini yanada takomillashtirish haqida fikr yuritib chiqilgan [14].

Namangan Davlat universiteti talabasi D.Nugmanova badiiy adabiyotlardan foydalanib o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha shunday fikr bildiradi: "O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda o'zbek milliy romanchiligining ilk durdonalaridan biri sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani va shu asosda ishlangan badiiy filmdan foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu film asosida milliy qadriyatlar, milliy an'analar ruhida yoshlarda axloqiy ideallarning shakllanishiga, kimga taqlid qilishlarini anglab olishlariga yordam berish bilan birga kasb-hunar egallashlariga zamin yaratish mumkin. Natijada o'quvchilarning turli-tuman kasblar to'g'risidagi bilim va ma'lumotlari kengayadi, mehnatga munosabatlari anchayin mas'uliyatliroq bo'lib boradi" [15].

Bulardan tashqari N.A.Muslimovning "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" nomli monografiyasi (Toshkent. "Fan", 2004), O'.H.Tolipov va boshqalarning "Darsdan tashqari mashqulotlar jarayonida o'quvchlarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi" (Toshkent. O'zPFITI. 2004) R.X.Jo'raev va boshqalarning "Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari" nomli monografiyasi (Toshkent. "Fan". 2004), O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi (Toshkent. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002), O'quvchilarning psixologik-pedagogik diagnostika o'tkazish mintaqaviy (viloyat, tuman, shahar) kasbga

yo'naltirish markazlarini tashkil qilish to'g'risidagi namunaviy Nizom (Toshkent. 2002), S.A.Boltaboev va boshqalarning "Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodikà kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma" (Toshkent. 2000), S.A.Boltaboev va boshqalarning "Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodikà kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma" (Toshkent. TDPU, 2000) kabilar bilan tanishib chiqildi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan adabiyotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish, kasb-hunarga yo'llashning nazariy asoslari, maktab pedagogik jamoasining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishdagi vazifalari kabi masalalar keng yoritib berilgan. "Mehnat va hayot" ilmiy-ommabop jurnalida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashni tashkil etish, kasblar olami haqida ma'lumotlar, dars va darsdan tashqari paytlarda o'quvchilarni kasbga yo'llashning ba'zi masalalari turli xil fanlar misolida yoritib berilgan. Ammo biz tanlagan mavzuga oid masalalar ko'rib chiqilgan manbaalarda juda kam yoritilganligining guvohi bo'ldik.

Bob bo'yicha xulosalar:

-jahonda islohotlarning "O'zbek modeli" sifatida e'tirof etilgan rivojlanish modelini amalga oshirish tufayli, davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida pespublikamiz xalq xo'jaligi rivojlanishining yuqori sur'atlari saqlanib qolmoqda;
-o'quvchilarni boy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, milliy o'zligimizni anglash orqali kasbga yo'naltirish ta'lim-tarbiya ishining samaradorligini yanada oshiradi;
-o'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarda badiiy asarlardan foydalanib kasbga yo'llash masalalari mavjud adabiyotlarda kam yoritilgan.

II. NAZARIY QISM

2.1. O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'llash

Umumta'lim maktablarining o'quvchilarini mehnat ta'limi dars mashg'ulotlari va darsdan tashqari tadbirlarda kasb-hunarga yo'llash yoshlarni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, umumta'lim fanlarining barchasida o'quvchilarni kasb-hunarlarga yo'llash amalga oshiriladi. Mehnat ta'limi darslari ta'lim-tarbiyaning bu jihatini amalga oshirishda asosiy o'rinni egallaydi.

O'quvchilarning individual fazilat va sifatlarini shakllantirish va o'quvchilarga kasbiy maslahat, kasbiy va iqtisodiy tarbiya berish, pedagogik-psixologik tashhis ishlarini amalda tadbir etish quyidagi uch bosqichdan iborat:

1-bosqich. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, kasb-hunarga yo'llash ishlarini takomillashtirishdan.

2-bosqich. O'quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, ehtiyojlariga qarab darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish, o'quvchilarni darsdan tashqari ishlarga tanlovlar asosida qabul qilish, individual va tabaqalashtirilgan metodlardan foydalanish.

3-bosqich. Shaxs sifatini tahlil qilish va tashxis qilish me'todikasini amalga oshirish.

Mehnat ta'limidan darsdan tashqari mashg'ulotlarning vazifalari quyidagicha:

-mehnat ta'limida o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, umumlashtirish va kengaytirish;

-unumli mehnatga asoslangan ijodiy faoliyatga o'quvchilarni jalb etish;

-o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari haqidagi tasavvurlarini kehgaytirish;


-o'quvchilarni xalq xo'jaligining zamonaviy ehtiyojlari asosida kasb-hunar tanlashga tayyorlash;

-mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llar ekanmiz, ularda kasb-hunarlar haqida to'g'ri tasavvurlar berishimiz kerak. O'quvchilarni qiziqish va kasbga bo'lgan moyilliklariga qarab rivojlantiruvchi shakllardan foydalanish o'smirlarda "Men kim bo'lishni xohlayman" degan savolga javoblarini onglarida shakllantirish kerak. Aksariyat o'quvchilarning kasb tanlashdagi asosiy xatoliklari u yoki bu kasb kishisiga munosabat kasbga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar. O'quv fanining kasb bilan bir xil deb tushunilishi, kasbning tashqi jihati bilangina qiziqish, mehnatning aqliy mazmuni va ba'zi kasblarga, ommaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari haqidagi noto'g'ri tasavvurlarning mavjudligi o'quvchilarning yana bir kamchiliklaridir. Ko'p hollarda o'quvchilar o'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera olmaydilar, u yoki bu kasbga zid bo'lgan o'z jismoniy hususiyatlari va nuqsonlarini nazar-pisand qilmaydilar, o'rtoqlarining ta'siri bilan kasb tanlash, tasodifiy sabablar ta'siri ostida kasb tanlash hollari uchraydi [16].

O'quvchilarga kasb so'zining lug'aviy ma'nosini tushuntirib berish foydadan holi emas. Kasb-maxsus tayyorgarlik va tajriba natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuasidir.

Taniqli olim Anvar Jalolov kasbni quyidagi sxema asosida tushuntiradi [17]:



1-rasm. Kasb tushunchasining asosiy tamoyillari

Dunyoda kasblar, hunarlar ko'p. Odamlar azaldan biror kasb-kor, halol va foydali ish bilan shug'ullanib, daromadlari evaziga hayotiy ehtiyojlarini qondirishga, yaxshi yashashga intiladilar. Shu tariqa oila ehtiyojlarini ta'minlabgina qolmay, jamiyat rivojiga ham o'z hissalarini qo'shadilar. Qolaversa, har kim istagan kasbi bilan shug'ullanish huquqiga ega. Faqat u shug'ullanmoqchi bo'lgan faoliyat turi qonun bilan ta'qiqlanmagan bo'lsa bas [18].

Kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi-bu umumta'lim maktablarining o'quvchi va bitiruvshilarini ongli va mustaqil ravishda kasb-hunarni egallashga tayyorlash va yo'naltirishdir.

Kasb-hunar egallashning usullarini aniqlash, kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirishning asosiy omillari, bu maktab direktori va maktab kasbga yo'naltiruvchi bilan birgalikda 1-9 sinflarda kasbga yo'naltirish bosqichlarini, mashg'ulotlarni yuqori saviyada o'tkazishni qanday yo'lga qo'yishidir. Umumta'lim maktabida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan bu masalani hal etishda sinf rahbari, fan o'qituvchilari ota-onalar, tashkilotlar bilan aloqada bo'ladilar. Ular kasbga doir turli xil tadbirlarni o'tkazadilar. Bu ishda ularga voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi, yoshlar ishtimoiy harakati, xotin-qizlar yaqindan yordam beradilar.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashda tarbiya vositalari samardorligini oshirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- kasbga doir xonani jihozlash;
- kasbga doir tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish;
- plakatlar, axborot texnologiyalari bilan tanishtirish;
- kasblar olami elektron axborot tizimi bilan ishlash;
- kasb-hunar tanlashning tegishli motivlarini shakllantirish [19].

Kasbiy faoliyat ilmiy yondashuvlar, xulosalardan foydalanib kasbiy rivojlanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Har bir mehnat bosqichida mehnat faoliyatini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi psixologik yangilanishlarga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari sifatida kasbiy tajriba, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar e'tirof etilgan kasbiy qobiliyat sintezining kompleksi, funksional tarzda faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlar ekan. Shaxsning kasbiy kamolotini individual-psixologik xususiyatlariga alohida urg'u beriladi.

Kasbiy faoliyatning bir qator bosqichlardan o'tish har bir insonning e'tiborga molik jihati xisoblanadi. Tadqiqotlarning aniqlanishicha yahshi mutaxassis bo'lishi uchun quyidagi sifatlar bo'lishi, ya'ni o'zini kamol toptirishga intilish, muammoni qo'ya olishi, ishga qiziqishi bilan ichki tayyorgarlik, amaliy targ'ibotga ega bo'lishi psixologik individual asosga egalik muhumdir. Kasbiy tajribaning ahamiyatini e'tirof etgan holda F.S.Ismagilova bir qator ijobiy mulohazalarni ilgari surganligi holda K.K.Platonov tajribani bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida qaradi. Psixologik test pedagogik faoliyatning psixologik diagnostikasiga asoslanadi [20].

Aholini ratsional va samarali bandligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim tog'risida"gi Qonunlari, halqaro mehnat tashkilotining nizomlari, loyihalari va takliflari, bir qator boshqa hujjatlar hamda rivojlangan mamlakatlarning shu sohadagi ishlarining amaliy tajribalari asos qilib olingan.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari maktabgacha ta'lim muassasalarida kasblar olami, umumta'lim maktablarida kasbiy axborotlar, maslahat va tashhislar asosida amalga oshirilmoqda. Tizim to'liq shakllanganligiga qaramasdan kasbga yo'naltirish ishlarida bir qator muammo va kamchiliklar ko'zga tashlanib qolmoqda. Jumladan:

1. Maktablarda mehnat va kasbga yo'naltirish ishlari.
2. Ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqa.
3. Umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish xonalari va axborot hamda kadrlar ta'minoti.
4. litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni qabul qilish tartibi.
5. Xalq ho'jaligi tarmoqlaridagi tarkibiy va kasbiy malaka o'zgarishlari.

Kasb-hunarga yo'naltirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi yosh avlodning ongli ravishda qobiliyati, moyilligi, qiziqishi, jamiyatning kadriga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, mehnat qilish sohasini tanlashidan iborat.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan, mehnatni oqilona taqsimlash va foydalanish hisobiga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish va shaxsni ishtimoiy va iqtisodiy himoyalashga bog'liq.

Kasb-hunarga yo'naltirish tamoyillari: iqtisodiy rivojlanish, qiziqishlarni muvofiqlashtirish, psixologik-pedagogik tashhis qilish shakli va ilmiy asoslanganligi, fuqarolarning kasb-hunarga yo'naltirishda teng huquqliligi, umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish xizmatlari majburiyligi va bepulligi, kasbiy tashhislarning obyektivligi va mahfiyligi, tafsiyaviy xarakterda ekanligi, hodimlarning kasbiy axloq qoidalariga rioya qilishlari.

Kasb-hunarga yo'naltirish obyekti: 1-9 sinf o'quvchilari, o'rta mahsus kasb-hunar ta'limi o'quvchilari, oily ta'lim, ish qobiliyati cheklanganlar, ishdan bo'shashni kutayotganlar, band bo'lmagan aholi guruhlari.

Kasbga yo'naltirish ishlarining mohiyati va mazmuni bu-har bir individning o'ziga xos xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'z kasbiy o'rnini topishi uchun shaxsga ta'sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositslar tizimidir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish mohiyat va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlariga ko'ra ijtimoiy – iqtisodiy kategoriyadir.

Kasbga yo'naltirish, asosan, kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va aralash kasbiy moslashishdan iborat.

1. Kasbga yo'naltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

2. Kasb-hunarga yo'naltirishni bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali kasbga yo'naltirish.
3. Kasb-hunar tizimini boshqarish.

Yuqorida ta'kidlangan ishlar tashkiliy-huquqiy ta'minot, kadrlar bilan ta'minlash, ilmiy-metodik va axborot ta'minoti, moliyalashtirish va moddiy-tehnika ta'minot asosida amalga oshiradi. [21].

Hozirgi davrda juda ko'p yangi kasblar yuzaga kelmoqdaki, ular haqida hali o'quvchilarda ma'lumotlar yetarli bo'lmasligi mumkin. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun Internet tarmog'ida juda ko'plan saytlar mavjudligini eslatib o'tish darkor. Masalan, <http://www.vde.infobus.ru> va <http://www.naviobraz.ru> va boshqalar.

Misol sifatida Menejer – bozordagi talab va taklifni o'rganadi. Biznes reja tuzadi, ma'lumotni yangilaydi, uni amalga oshirishni ishlab chiqaradi. Har xil tanlov va hodimlarning malakaviy o'sish jarayonini boshqaradi. Menejer qaror qabul qila oladigan bo'lishi kerak. Menejerda nutq, xotira, yuqori emotsional barqarorlik, tashkiliy qobiliyatlar, tavakkalchilik yuqori darajaga rivojlangan bo'lishi kerak. Menejer huquq, ijtimoiy psixologiya, mehnat psixologiyasi, boshqaruv sohalari bo'yicha malakali bo'lishi kerak. U mehnat qonunlari, soliqqa tortish, marketing, reklama, tijorat uchrashuvlarni olib borish, ishlab chiqarishning tashkil etilishini bilish kerak. Undan tashqari chet tillarni bilishi kerak. [22].

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirishda “Kasblar alifbosi”, “Kim bo'lsam ekan?”, “Kasblar olamiga sayohat”, “Men orzu qilgan kasb”, “Kasbiy moslashish”, “Kasbiy o'sish” va “Shaxsning o'zini-o'zidirivojlantirishi” kabi mavzular haqida televideniya ko'rsatuvlar uyushtirishning o'zini katta va psixologik tomonidan kuchlidir.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda Prezident I.A.Karimovning 2006-yil 25-avgustdagi 451-sonli “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida”gi farmoni [7] da ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarishga qaratdim. Jumladan:

- kasb-hunar egallashga yo'llash orqali o'quvchilarda ma'naviyatni shakllantirish;
- tarixiy badiiy asarlar orqali milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari, noyob va betakror namunalari orqali o'quvchilarga tarbiya berish;
- zamonaviy kasb-hunarlarga qiziqtirish orqali o'quvchilarga bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlarini olib borish;
- mehnat ta'limidan darsdan tashqari tadbirlar o'tkazish orqali o'quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar ruhida tarbiyalash.

Bizga ma'lumki, kasb-hunar kollejlari tizimida quyidagi sakkizta bilim sohasi bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlanadi:

1. Ta'lim.
2. Gumanitar fanlar va san'at.
3. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq.
4. Fan.
5. Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari.
6. Qishloq va suv ho'jaligi.
7. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot.
8. Xizmatlar.

Kasb-hunar kollejlari tayyorlanayotgan kichik mutaxassislar ro'yxati “O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichi”da berilgan. 1-jadvalda bilim sohalari bo'yicha mamlakatimiz kasb-hunar kollejlari tayyorlanayotgan kichik mutaxassislar va kasblarga oid misollar ko'rsatilgan [23].

1-jadval

Kasb-hunar kollejlari tayyorlanayotgan bir qator kichik mutaxassislar va ularning kasb tiplari bo'yicha ajratish

Ta'lim	Mutaxassislik	Kasblar	Kasb	Prezident I.A.Karimovning “Milliy
--------	---------------	---------	------	-----------------------------------

yo'nalishlar i nomi	lar nomi		tiplari	g'oya targ'iboti va ma'naviy- ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 451-sonli farmonning ijrosi
1. Ta'lim				
Jismoniy tarbiya va bolalalar sporti	Jismoniy tarbiya va bolalalar sporti	Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya murabbiysi	"Odam- odam"	Aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish, xususan, qishloq joylardagi o'quvchi qizlar o'rtasida sportning badiiy gimnastika turini ommalashjtirish
2. Gumanitar fanlar va san'at				
Rangshuno slik	Tarixiy-teatr liboslari san'ati	Teatr liboslari rassomi	"Odam- badiiy obraz"	Odob-axloq qoidalariga amal qilgan holda kiyinishni targ'ib etish, milliy va zamonaviy kiyim modellarini yaratishga yo'llash
3. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq				
Biznesni boshqarish	Xalqaro biznes	Kichik korxona va mikrofirma menejeri	"Odam- belgili tizim"	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, oilaviy kasanachilik
4. Fan				
Foydali qazilmalar geologiyasi va qidiruv ishlari	Geologiya qidiruv ishlari	Texnik-geolog	"Odam- texnika"	O'zbekiston zamini foydali qazilmalarga juda boy. Ularni qidirib topish va xalq ho'jaligi ehtiyojlari uchun qazib olish
5. Muhandislik, ishlov berish ba qurilish tarmoqlari				
Shahar qurilishi va xo'jaligi	Bog'-park qurilishi	O'simliklarni himoya qilish laboranti	"Odam- tabiat"	Prezident I.A.Karimovning "Namangan shahri infrastrukturasi rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni, yangi turar joy binolari, shahar madaniyat va istirohat bog'ining yangi reja asosida qayta qurilganligi
6. Qishloq va suv ho'jaligi				
Fermer ho'jaligini boshqarish	Chorvachilik fermar ho'jaligini tashkil etish va yuritish	Hayvonlarni davolash va profilaktikasi veterinari	"Odam- tabiat"	Fermer ho'jaliklari va ularni yuksaltirish bilan bog'liq ishlar
Suv ho'jaligi va melioratsiy a	Suv ho'jaligi va melioratsiya	Texnik- gidrotexnik	"Odam- tabiat"	Ichimlik suvi ta'minotida, transchegaraviy daryolar bilan bog'liq ekologik muammolar
7. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot				
Davolash ishi	Davolash ishi	Umumiy amaliyot feldsheri	"Odam- odam"	O'zbekiston aholisi yil oxirigacha 30 mln ga yetadi, o'rtacha umr ko'rish erkaklarda 73, ayollarda 75 yoshni tashkil etmoqda, aholi salomatligini muhofaza qilish chora-tadbirlari,
8. Xizmatlar				
Turizm	Turizm,	Turizm,	"Odam-	O'zbek millatining o'ziga xosligi,

	mehmonxona va restoran biznesini tashkil etish	mehmonxona va restoran biznesini tashkil etish bo'yicha mutaxassis	odam"	oshpazlik, oilaviy biznes haqida
Sport faoliyati	Sport	Olimpiada sport turlari bo'yicha murabbiy	"Odam-odam"	O'zbekiston sportchilarining jahon olimpiadalariga erishgan muvaffaqiyatlari

Qadimgi qo'lyozma asarlarda ham yoshlarning kasb-hunar egallashlari qay darajada muhim ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Masalan, Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida kasb-hunar o'rganish nechog'li zarurligi haqida farzandlariga quyidagicha nasihat qiladi:

-“Ey farzand, ogoh bo'li, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, tikanli butaning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham tikanli butaga yanglig' na o'ziga, na o'zgaga foyda berur” [24].

Umumta'lim maktabida o'qitiladigan bir qator o'quv fanlarida badiiy asarlarga ko'p murojaat qilinadi. Masalan, adabiyot fani darslarida yozuvchilar, shoirlarning hayoti va ijodi, ularning asarlari, ona tili va rus tili fanlari darslarida badiiy asarlardan parchalar, gaplar keltiriladi va ularni tahlil etish orqali fan asoslari o'rganiladi hamda shu asosda o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladi. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samaradorligini oshirishda ham badiiy asarlardan foydalanish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Shu mulohazalardan kelib chiqib, men bitiruv malakaviy ishimda mehnat ta'limi o'quv fanini o'qitishda bir qator o'zbek adiblarining asarlaridan foydalangan holda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ilmiy izlanish olib bordim.

Mustaqillikka etishganimizdan so'ng shahar va qishloqlarning qurilishiga katta e'tibor berila boshladi. Davlatimiz rahbarining ko'rsatmasi bilan ko'p qavatli egizak uylar qurilishiga barham berildi. Xonadonlarning ichki xonalari o'zbek milliy mentalitetiga mos tushadigan loyihalar asosida qurola boshladi. Binolarning sharqona me'morchilik usulida qurila boshlagani o'z navbatida milliy qadriyatlarimizning tiklanishi, ma'naviyatning yuksalishiga olib kelmoqda.

2.2. Darsdan tashqari tadirlarda badiiy asarlardan foydalanib o'quvchilarni kasbga yo'naltirish

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti laureati Mirmuhsin Mirsaidovning "Me'mor" tarixiy romanini o'qir ekansiz [25], beixtiyor yurtimizda, xususan, Namangan shahrida olib borilayotgan yaratuvchilik ishlari hayolingizdan o'tadi. So'nggi yillarda Namangan shahrida ko'plab turar joy binolari qurildi, yangi yo'llar chiqarildi. Xususan, shahrimiz markazida joylashgan Navoiy nomidagi viloyat musiqali drama va komediya teatri va Namangan Davlat universiteti atrofidagi maydon ham juda ko'rkam holatga keltirildi. Bugungi kunda Chorsu maydonini zamon talablariga mos holda o'zgartirilishi natijasida shahrimizdagi qadimiy arxitektura yodgorligi bo'lmish Mulla Qirg'iz madrasasi binosi bor salobati bilan ko'zga tashlanadigan holga keltirilmoqda.

Qadimgi davrlarga nazar tashlar ekanmiz, kasb tanlash xozirgi davrga qaraganda boshqacharoq bo'lganligini anglab yetamiz. Chunki, qadimda kasblar soni va turi unchalik ko'p bo'lmagan. Xozirda esa kasb tanlash insondan katta bilimni talab qiladi. Axborotlar hajmining tez oz'garishi va ular sonining ko'payishi yangi bilimlarni paydo bo'lishiga sababchi bo'lmoqda. Natijada yangi bilimlarning kalitini topishga, yangi faoliyatni yaralishiga ehtiyoj sezilmoqda. Yangi faoliyat o'z-ozidan kasblarning turini ko'payishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, kasblar ko'paygan sari o'quvchi yoshlarning kasb tahlashlari murakkablashib boradi. Bizga ma'lumki, murakkab hayotga qadam qo'yish arafasida turgan yoshlarga ota-onalar, ijtimoiy muhit, maktab, kasn-hunar kollejlari, akademik litseylar va ommaviy axborot vositalari bu sohada muhim o'rin tutadi. 1997-yil qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda kadrlar sifatini oshirish va ta'limni isloh qilish to'grisida bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekistonning kelajagi va ravnaqi uchun yangi dastur va tadbirlarni ishlab chiqilar ekan, xalqimiz hayotining yanada farovon bo'lishiga xissa qo'shish har bir yurt fuqarosining burchidir.

Ana shu burchlarimizdan biri yoshlarni to'g'ri kasb tanlashlariga shart-sharoitlar yaratib berishimiz lozim. Buning ucnun nima qilmoq kerak, degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Eng to'g'ri va oqilona fikr bu o'quvchilarni o'zining qiziqishi va moyilligiga, qobiliyatiga mos kasbni tanlashiga imkoniyat yaratib berishimiz va mustaqil qaror qabul qila olishi uchun har hil chora-tadbirlarni o'rgatishimiz lozim. Ana shu chora-tadbirlardan biri maktablarda o'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarda badiiy asarlardan foydalanib kasbga yo'naltirishni amalda qo'llash deb bilamiz. Chunki, badiiy asarlarni o'quvchilar mutolaa qilganlarida asar qahramonlarini o'zlarining tasavvurlarida ko'radilar. Bo'lib o'tgan voqealarni tahlil qiladilar. Natijada fikrlash doiralari kengayib hayotga real qaray boshlaydilar.

Hamma bolalar ham badiiy asarlarni o'qiyvermaydilar-ku, degan e'tiroz paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun biz yuqorida aytib o'tganimizdek, maktablarda darsdan tashqari tadbirlarni, o'quvchilarning qiziqishiga mos bo'lgan kechalarni tashkillamog'imiz maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

O'zbek adiblarining tarixiy mavzuda yozgan asarlari talaygina. Ularni o'qir ekanmiz, o'sha davr hayoti, odamlarning turmush tarsi, kasb-korlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Darsdan tashqari turli xil tadbirlarda shunday kitoblarn foydalanilsa, o'quvchilarni nafaqat, kasb-hunarga yo'naltirish, balki ularni ma'naviyatini oshirishga ham katta xissa qo'shilgan bo'ladi. Shunday tarixiy asarlarda qancha kasbga doir so'zlar borligi, o'sha davrda kasblarning nomini qanday atalganligi hamda hozirgi davrda o'sha kasblarni nima deb yuritilishini aytish orqali o'quvchilarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashimiz mumkin. Masalan: Mirmuhsinning "Me'mor" romanida uchraydigan kasblarning bugungi kundagi mazmun-mohiyati ancha o'zgargan. Ularning zamonaviy sinonimlari quyidagicha deb aytish mumkin, deb o'ylaymiz: sarkarda-leytendant, sarboz-askar, zargaron-zargar, korfarmo-xisobchi, navkar-askar, mirshab-militsiya va hokazo. Vaholanki, asarning mana bu bandlariga e'tibor bersak "...Devonu Lutfiy" xattot Yoqut uslubida ko'cirilgan bo'lib, Shohruh Mirzoga tuhfa qilingan. Mavlono yosh e'tibori bilan Me'mordan kichikroq bo'lganiga qaramay, ancha salobatli, ayni vaqtda shirin zabon dilbar odam ekani Me'moru muhandislar orasida ma'lum edi...". Hattot, me'mor, muhandis kasblari o'sha davrning obro'li kasblari bo'lganini guvohi bo'lamiz. Har bir davrning o'ziga xos mavqega ega kasblari mavjud, lekin har bir davrning o'ziga xos yomon illatlari va xislatlari ham, ming afsuski, bo'lar ekan. Bu o'z -o'zidan kasblarni rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. "Bu gaplarni odamiylik, axloq-odob, xalol mehnat, mardlik, sharmu hayo, insof, tadbirkorlik kabi fazilatlar ulug'lanar edi. Tanballik, haromtamoqlik, poraxo'rlik, jaholat, yolg'onchilik, adovat, hasad, g'iybat, hiyonat, kabi illatlar qoralanar edi. Ali meshkobchini bu gaplarni aytib yurishi, tabiiyki saroy amaldorlariga yoqmas edi..." [25]. Bu so'zlardan ko'rinib turibdiki, o'sha davrda ham kasb egalarilarning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lganligi ko'rinib turibdi. Lekin har bir insonning, albatta, yahshi fazilati bo'ladi. Bazi bir shaxslar ana shu fazilatlarini yuzaga chiqarolmaydilar. Umuman olganda badiiy asarlarni ko'p mutolaa qilinsa, insonning ma'naviyati boyib boradi. Ma'naviyati boyigan shaxs kasb tanlashda adashmaydi. Jamiyatga foyda keltiradigan kasb shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirishda foyda keltira oladi.

Romanda XV asrda Movarounnahr va Xurosonda me'morchilikning rivojlangani, ular qurgan obidalar va tarixiy yodgorliklar, me'morlar va muhandislarning hayoti, beqiyos san'ati va o'sha zamon qarama-qarshiliklari ko'rsatilgan. "Me'mor" romanida bosh qahramon Me'mor Najmiddin Buxoriyning Xirot shahridagi hayoti, qurgan binolari, uning o'z yurtiga qaytishi, Buxoroga qayta turib yo'l-yo'lakay hashar yo'li bilan sardoba qurgani, kasalmand va qarib qolgan bo'lishiga qaramasdan Buxoroda ham bir qancha qurilishlarning loyihasini chizib, uni qurishga bosh-qosh bo'lgani o'quvchini to'liqlantiradigan tarzda bayon etilgan.

Romanda kasb-hunar egalari, ularning mashaqqatli mehnatlari qadrlanadi. Usta Jo'rjiy timsolida Amir Temur davrida Xirotga kelib qolgan usta, quruvchi, hunarmandlar hayoti aks

ettirilgan. Usta Nusrat, ustod Qavom va Xorun bo'zchi timsolida oddiy hunarmandlarning hayoti va zahmatkash mehnati bayon etilgan.

Asarda me'mor, sangtarosh, najjaron, shoiron, naqqosh, koshinpaz, sirchi, usta kabilarning yaratuvchilik faoliyatlari keng va har tomonlama yoritilgan. Ular yaratgan bino, gumbaz, madrasa, qal'a, musallo, karvonsaroy, mahkama, maktab va saroylar Xirot shahri ko'rkiga ko'rk qo'shib turgani yorqin tarzda bayon etiladi. Buni o'qigan o'quvchida shunday kasblarga qiziqish, uni egallashga intilish kuchayadi.

Buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi Amir Temur o'rta asrda kuchli va markazlashgan davlatga asos soladi, ilm-fan va madaniyat ravnaqiga homiylik qiladi. O'z davriga nisbatan juda katta hududni birlashtirgan davlatni Amir Temur alohida boshqaruv usulida ushlab turgan. Bu boshqaruv Amir Temurdan keyin ham davom etgan va mamlakatda tinch hamda osoyishta hayot ta'minlangan. Lashkarboshi, Mingboshi, sarkarda, yuzboshi, ellikboshi, lashkar, navkarlar mamlakat butunligini ta'minlagan bo'lsalar, posbon, nozir, mirshab, yasovul kabilar yurt ichkarisida aholi o'rtasidagi tinch-totuvlikni ta'minlashgan. Asardagi bunday kasb kishilari haqidagi voqea-hodisalarni aytib berish orqali biz hozirgi zamon O'zbekiston Qurolli kuchlari, Ichki ishlar qo'shinlarining taraqqiyot darajalari, ularda xizmat qilayotgan xodimlar haqida gapirib beriladi va o'quvchilarni harbiylik, ichki ishlar tizimida ishlaydigan kasblarga qiziqtirishimiz mumkin.

Mustaqil O'zbekiston jahon hamjamiyatiga shahdam qadamlar bilan qo'shilib borar ekan, ko'plab xalqaro shartnomalarga imzo qo'yib xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lmoqda. Qadimda o'lim jazosiga mahkum etilganlarni jallodlar tomonidan butun xalq oldida o'ldirilish manzaralarini bayon etish orqali O'zbekistonda o'lim jazosi 2008-yil 1-yanvardan boshlab bekor qilingani haqida gapirib berish foydadan holi bo'lmaydi.

Korfarmon Ahmad Chalamiy va boshqa salbiy obrazlar timsolida ma'naviy buzuvchi, pastkash, xaromtamoq kishilarning jirkanch qilmishlari (firibgar, giyohvand, ishratboz, fohishaxona, poraxo'r, qaroqchi so'zlari orqali) o'quvchida nafrat va g'azab uyg'otadi. Asarda keltirilgan firibgar, giyohvand, ishratboz, poraxo'r, qaroqchi kabi umuminsoniy qadriyatlarga zid faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilar haqida gapirib berish bilan o'quvchilarni qonun yo'li bilan ta'qiqlangan faoliyat bilan shug'ullanmaslikka chaqiriladi va bunday faoliyatlar kasb-hunar emasligi uqdiriladi (2-jadval).

2-jadval

Mirmuhsinning "Me'mor" romanida qo'llangan kasb-hunarga oid so'z va iboralar ro'yxati

Mehnat mahsuloti	Bino, gumbaz, hovli, koshin, kumush jom, madrasa, musallo, qal'a, karvonsaroy, mahkama, maktab, saroy
Atoqli ismlar	Me'mor Najmiddin Buxoriy, usta Jo'rjiy, usta Nusrat, ustod Qavom, Xorun bo'zchi, korfarmon Ahmad Chalamiy.
Kasb-hunar nomlari	Alloma, ancho, aravakash, attor, bastakor, baxshi, bazzoz, bo'zchi, cho'pon, dehqon, elchi, g'avvos, hammol, hattot, hofiz, holvachi, honanda, hunarmand, imom, jarchi, jarroh, kabobpaz, kaptarboz, kitobfurush, korfarmo, koshinpaz, kosib, kulol, mardikor, me'mor, meshkopchi, muboris, muhandis, munajjim, naddof, najjaron, oltinsoz, sangtoroshon, sarbon, sarboz, sardor, sarkor, sarrofon, savdogar, shakarpaz, shikorchi, shoir, sirchi, somsapaz, tabib, telfakfurush, usta, yoymachi, zargaron.
Mehnat faoliyati	Me'morchilik, meshkopchilik, sarkorlik.
Turli xil lavozimlar	Amirzoda, ellikboshi, hokim, jallod, karvonboshi, lashkarboshi, navkar, mingboshi, mirshab, qoravul, sarkarda, saroy sohibi, shoh, xizmatchi, yasovul, yuzboshi, posbon, nozir, zindonband.
Qonin bilan ta'qiqlangan mehnat faoliyati	Firibgar, fohisha, giyohvand, ishratboz, poraho'r, qaroqchi, qo'chqorboz, devona.

Yoshlarni kasbga yo'naltirishda nafaqat tarixiy romanlarda emas, balki zamon bilan hamnafas bo'lib keladigan asarlar muhim rol o'ynaydi. Masalan, Hudoyberdi To'htaboyevning "Sariq devni minib" asarida bilim olishni yomon ko'rgan qahramonimiz Hoshimboy sehrli qalpoqcha topib oladi. Sehrli qalpoqcha bilan injener, agronom, zootexnik, shoir bo'lib ko'radi. Lekin sehrli qalpoqchasi biror kasbni uddalab ketishiga yordam berolmaydi. Masalan:

"-Qani menga ko'rsatingchi,-dedim o'zimni bosib. Brigadir kelgan tomonga qarab ketdik. Boryapmanu yo'l-yo'lakay qo'ltig'imga qisib olgan sehrli qalpoqchamga "qalpoqcham yordam bergin, aql o'rgatgin"deb shivirlayman.

"Aql sehriga bo'ysunmaydi, aqlingga aql qo'shib berolmayman, o'zimda ham shu qurg'uridan sal kamroq",-deydi qalpoqcham.

-Bo'lmagan gap, qo'shasan!

-“Qo'sholmayman. Ilm, Aql degan narsalar qalin jildli kitoblarda bo'ladi, dono kishilarning kallasida bo'ladi. Umrin bino bo'lib bitta ham kitob o'qigan emasman. Xat-savodim yo'q ...” [26].

Bu so'zlarni tahlil qilsak, qahramonimiz Hoshimboy Bir savxozga borib sehrli qalpoqcha orqali agronom bo'lib oladi. Lekin "buyuk" agronom go'zalarga shira tushganda nima qilishni bilmay g'o'za barglarini kaltaklashni buyuradi. Natijada uni jinnixonadan qochgan bemorga chiqarib haydab yuborishadi. Undan so'ng shoir bolish uchun magazinlardan, bozorlardan qofiya, vazn qidiradi. Biroq sehrli qalpoqcha qahramonimizga bo'yni o'stirib ko'rinmas qilib ko'rsata oladi, holos. Asardan xulosa shuki, hech bir kasbni sir-asrorini o'rganmasdan turib kasbning haqiqiy egasi bo'lish mumkin emas.

Bugungi kunda har bir shaxs o'ziga o'zi "Men kelajakda kim, bo'laman? Qanday kasb egallayman?" kabi savollarga javob berishi kerak. Bugungi kunda mamlakatimizda aynan o'quvchilar uchun mo'ljallangan kasbga doir bilim beradigan ommabop adabiyotlar yaratilishi kasbga yo'naltirishning yangi dasturlarini ishlab chiqilishiga imkoniyatlar bermoqda.

Yoshlarga bilim berish uchun avvalo biz bo'lajak o'qituvchilar izlanuvchan va bilimli bo'lmog'imiz darkor. O'qituvchi bir daraxt bo'lsa, o'quvchilar esa uning shohlari. Daraxtning ildizlari qanchalik baquvvat bo'lsa, mineral o'g'it, quyosh nuri va suvga yetarli darajada to'yingan bo'lsa, uning mevasi shunchalik totli va shifobaxsh bo'ladi. Hulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kelajagimiz buyuk, mamalakatimiz ravnaqi uchun vijdonan harakat qilmog'imiz zarur. O'quvchi-yoshlarni har tomonlama barkamol inson bo'lib voyaga yetishlari uchun, avvalo biz-bo'lg'usi o'qituvchilar bilimli, ma'naviyatli, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib shakllanishimiz darkor. Ana shundagina biz ko'zlagan maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

2.3. Ilg'or pedagogik texnologiyalar haqida

"Kadrlar tayyorlash milliy dastiri"da jamiyat, davlat va oila o'z javobgarligini xis etadigan har tomonlama rivojlangan shahsni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Bu maqsadga yetishishimizda biz ta'limning qulay va tezkor sharoitini yaratish uchun pedagogik innovatsiyaning asosiy kategoriyalari "yangi", "yangilikni tadbiq etish", innovatsiya tushunchalari mohiyatining tarkibini va xarakteristikasini ochib beruvchi, yetarli material to'plangan bo'lishiga qaramay hozirga vaqtda ularni aniqlashga yondashish yetarli darajada mavjud emas.

O'qituvchi shahsidagi yangilikning samarasini ta'minlovchi muhim faktor-bu innavatsion faoliyatni amalga oshirishdir. Shaxsiy hususiyatlarga e'tibor berish ta'lim texnologiyasining eng muhim talabi hisoblanadi. Bunday talablarga o'qituvchi-pedagog o'quvchilarni rivojlantirishdagi istiqbol va tajribani belgilay olishi kerak. Innovatsion faoliyatni tanlovchi tadqiqot xarakteri pedagogning dasturlarni, darsliklarni erkin tanlash imkoniyatini berishi, ruhiy talablarni amalga oshishi hamda o'z-o'zini namoyon qila olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Demak, ta'lim texnologiyasi bu o'qituvchining shaxsiy hususiyatlarini aks ettiruvchi va professional faoliyatda o'zini namoyon etush xarakteridir.

Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati o'qitishning an'anaviy og'zaki bayon qilish usullaridan voz kechib, test asosida mashina yordamida o'qitish o'quvchilarni ko'proq mustaqil bilim olishga undashdan ibofat. O'qituvchi bunga o'quvchilarni bilish faoliyatining maslahatchisi, boshqaruvchisi, yakuniy natijaga yo'llovchi vazifani bajaradi.

Ta'lim texnologiyasining samaradorligi shundan iboratki, unga turli o'quvchilar deyarli bir xil yakunga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa barcha o'quv yurtlariga yagona ta'lim standarti talablariga javob beradigan mutahassislar tayyorlash vazifasi yuklatilgan hozirgi davrda biz O'zbekiston pedagoglari uchun nihoyatda muhimdir.

Ta'lim texnologiyasining mantiqida ikki xil yondashish g'oyasi yotadi.

1. O'quv jarayonini to'la-to'kis o'rgaruvchi mashinalarga o'tkazib, unda asosiy rol o'ynaydigan o'qituvchini to'la ozod qilish;
2. Uning faoliyatini tashkil etish va maslahat berish funktsiyalarini chegaralash kiradi.

Bunday holda o'qituvchi o'qitish tizimini rejalash, yaratish va ularni qo'llashga tayyorlangan sharoitda, xatto, o'rtacha o'qituvchi ham yuqori natijalarga erishishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi didaktik tamoyilni amalga oshiruvchi bo'lib, uning malakasi muhim rol o'ynamaydi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda ta'limni takomillashtirish, rivojlantiruvchi ta'lim, ta'limning faol yangi metodlari, muammolari, o'qitish metodlari, programmalashtirilgan ta'lim haqida keng va atroflicha ma'lumotlar berilgan. Ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyati birinchi navbatda pedagog shaxsi va uning mahoratiga bog'liqdir. Chunki, bugungi o'qituvchi Vatanimiz kelajagi uchun yangicha fikrlaydigan, hozirgi rivojlanishga yangi nigoh tashlaydigan komil insonni tarbiyalay oladigan bilim, mahoratga ega bo'lishi kerak. Bugungi kunda pedagogik amaliyotimda "yangi pedagogik texnologiyalar"dan, "ta'limning no'anaviy shakllari"dan samarali foydalanilmoqda. Noan'anaviy dars bu qolipga solinmagan dars shakli bo'lib, o'qituvchining ijodkorligi, tashabbuskorligi va o'quvchilarning faolligi amalga oshirilgan mashg'ulotdir. Noan'anaviy dars o'tish ta'lim jarayonida o'qituvchini ijodkorlik va izlanishga, o'rtacha o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil fikrlash hamda intilishga undaydi. Zamonaviy ta'lim jarayonida noan'aviy ta'lim shakllaridan biri sifatida didaktik o'yinli darslar keng qo'llanilmoqda. Didaktik o'yinli darsni tashkil etishda quyidagi talablarga rioya etish kerak:

1. Didaktik o'yinlar dasturida qayd etilgan ta'limning tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarini xal qilishga qaratilgan bo'lishi.
2. Amaliyotdagi muhim muammolar o'yin davomida hal etilishi.
3. Xalq pedagogikasidagi barkamol shaxsni tarbiyalash nazariyasi va sharqona odob-axloq me'yorlariga mos kelishi.
4. O'yinning o'tkazilishi mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi.
5. Darslarda didaktik printsiplarga kam vaqt sarflash.

Noan'aviy shakllarni amaliyot jarayonida qo'llash natijasida xilma-xil qarashlar yuzaga keldi. Aksariyat pedagoglar bu shaklni ijobiy baholab darsga qiziqishni oshiradi, mavzularni o'zlashtirishga zamin yaratadi, deb hisoblaydilar.

Darsning turli xil noan'anaviy shakllari mavjud. Ular quyidagilardir:

- ishbilarmon o'yini;
- ilmiy anjuman darslari;
- musobaqa darslari;
- teatrlashgan darslar;
- kompyuter darslari;
- o'quvchilar tomonidan olib boriladigan darslar;
- tanlov (konkurs) darslari;
- rolli o'yinlar darslari va boshqalar.

Biz fuqarolik jamiyatini qurmoqdamiz. Bunday jamiyatni barpo etish uchun biz ta'lim sohasini yuqoridagilarga tayanib rivojlantirishga harakat qilmog'imiz darkor. Buning uchun bizga, albatta bilim kerak, mustaqil fikrlashga ega bo'lmog'imiz kerak.

Mustaqil fikrlash bu- inson sezgi organlari va aqliy faoliyatining birligi natijasi o'laroq, mustaqil ravishda taxlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi fikriy operatsiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir. Xulosa qilib aytganda ta'lim texnologiyasining 2 ta asosiy vazifasi bor:

1. Umumiy vazifalar.
2. Maxsus vazifalar.
1. Umumiy vazifalarga quyidagilar kiradi:
 - a) o'quvchilar tomonidan aqliy hamda amaliy usullarning o'zlashtirilishi;
 - b) o'quvchilarning mustaqil bilim olish va ijodiy qobiliyatlarini oshirish;
 - c) o'quvchilarda ijodiy, erkin, mustaqil va tanqidiy fikrlashni tarkib toptirish;
2. Maxsus vazifalarda quyidagilar kiradi:
 - a) bilimlarni o'zlashtirishning mantiqiy usullari va ijodiy faoliyatni yo'lga qo'yish;
 - b) bilimlarni ijodiy qo'llash malakasi va o'quv muammolari yecha bilish ko'nikmasini hosil qilish;
 - c) ijodiy faoliyat tajribasini tarkib toptirish va to'plash.

Natijada o'quvchilarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ta'limning ilmiy saviyasini oshirishga erishiladi. O'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini darsdan tashqari tadbirlarga ham qo'llash mumkin. Biz mehnat ta'limi bo'yicha o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishdagi darsdan tashqari tadbirni o'tkazishda teatrlashtirilgan usul va muammoli vaziyatlar usulini tanlab oldik.

Bob bo'yicha xulosalar:

-o'quvchilarning qiziqishi, moyilligi, qobiliyati, temperament va xarakteri, salomatligini har tomonlama va chuqur o'rganish orqali o'quvchilarni kasbga yo'llash ishlarini tashkil etishda muhim bosqich hisoblanadi;

- o'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarda badiiy asar (H.To'htaboyev. "Sariq devni minib", Mirmuhsin. "Me'mor")lardan foydalanish orqali kasbga yo'naltirilsa, mehnat samaradorligi oshadi;

-darsdan tashqari tadbirlarni o'tkazishda ilg'or pedagogik texnologiya (teatrlashtirilgan usul va muammoli vaziyatlar usuli)larni qo'llash kasbga yo'llashda o'quvchilar faolligini oshiradi. Ularni milliy qadriyatlar, milliy an'analar ruhida tarbiyalashda va milliy hunarmandchilik kasblariga qiziqtirishda katta ahamiyatga ega.

III. METODIKA QISMI

3.1. Mehnat ta'limi dars mashg'ulotlarining huquqiy-meyoriy hujjatlari

Bugungi kunda umumta'lim maktabining mehnat ta'limi o'quv fani boshqa fanlar singari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi qo'shma hay'at majlisining 2010-yil 1-iyuldagi №6/2 va №4/1 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi" asosida faoliyat ko'rsatmoqda [27]. Avvalgi Davlat ta'lim standartining kamchiligi shundan iborat ediki, unda o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va psixofiziologik xususiyatlariga mos bo'lmagan, sinflar, ta'lim bosqichlari mazmunida takrorlangan, izchiulligi ta'minlanmagan mavzular mavjud edi. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga kiritilgan o'zgartirishlar quyidagi jadvalda berilgan (3-jadval).

3-jadval

Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga kiritilgan o'zgartirishlar haqida
ma'lumot

Bajarilgan ishlar mazmuni	O'zgartirilgan
---------------------------	----------------

	soatlar hajmi
Takrorlangan, izchilligi ta'minlanmagan soatlar	813
Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlaridan chiqarilib o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tkazilgan soatlar	247
Sinfdan sinfga o'tkazilgan soatlar	327
Sinflarda takrorlanganligi uchun qisqartirilgan, maqbullashtirilgan soatlar	239
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tkazilgan va sinflar kesimida maqbullashtirilgan soatlar hisobidan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan qo'shimcha soatlar:	240
murakkab mavzularni kengaytirib o'qitish uchun: soatlar:	359
yangi mavzular uchun ajratilgan soatlar:	214
Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari bo'yicha qayta ishlangan o'quv dasturlari	18 ta

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasiga binoan mehnat ta'limi o'quv fani 1-4, 8-9-sinflarda 1 soatdan, 5-7-sinflarda 2 soatdan haftasiga 12 soatdan, jami 397 soat hajmda o'qitilishi ko'zda tutilgan.

Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilar mehnat va kasblar dunyosi bilan tanishadilar, elementar mehnat malakalari va umummehnat tayyorgarligi bilan tanishadilar. Mehnat bozori sharoitida umumta'lim maktabi bosqichidan keyingi bosqichda ishlab chiqarish asoslari va tanlagan kasblari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni amalga oshiradilar.

Mehnat ta'limi o'quv fanining Davlat ta'lim standarti quyidagi vazifalarni bajarishni o'z oldiga qo'yadi:

- texnik-texnologik va tashkiliy-iqtisodiy bilim elementlarini shakllantirish;
- umummehnat va maxsus mehnat, mehnat va ekologik madaniyat asoslari, mehnat jarayonida hamkorlik malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlari, texnik tafakkur va konstruktorlik qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarda mehnatga ijobiy munosabat, halollik, tartiblilik, javobgarlik xissi, tashabbuskorlik, ishchanlik va tadbirkorlikni shakllantirish.

Avvalgi o'quv fani dasturidan farqli o'laroq, ushbu fan dasturi mehnat ta'limini o'qitishda maktablarning sharoitlari va ular joylashgan hududlarning inftrastrukturasiidan kelib chiqib "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" va "Qishloq ho'jaligi asoslari" yonalishlaridan birini tanlab oladilar.

Biz bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlashda "Texnologiya va dizayn" yo'nalishini asos qilib oldik.

8-sinf mehnat ta'limi fanining "Texnologiya va dizayn" yo'nalishida "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limini o'qitishga 4 soat ajratilgan bo'lib u quyidagi mavzularni qamrab oladi (4-jadval) [28]:

4-jadval

8-sinf mehnat ta'limi fanining "Texnologiya va dizayn" yo'nalishida
"Kasb tanlashga yo'llash" bo'limida o'tiladigan mavzular ro'yxati

Darslar tartibi	O'tiladigan mavzular	Dars soati
31	Kasblar tasnifi, kasblarda mehnat turlarining ta'rifi	1
32	Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablar. 4-nazorat ishi	1
33	O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning yo'nalishlari, ularning bir-biridan farqi, umumiy tomonlari. O'quvchi-yoshlari kasb-hunarga yo'naltirish tizimi	1
34	Amaliy mustaqil ishlar: Kasblarni tasniflash bo'yicha topshiriqlar bajarish. Tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatligiga qo'yiladigan talablar haqida referat tayyorlash	1

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakari "5-9 sinf o'quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting to'g'risidagi Nizom"i asosida joriy, oraliq, bosqichli va yakuniy nazoratdan o'tkazib aniqlanishi belgilangan.

Biz tanlagan mavzu doirasida o'quvchilar bitta nazorat ishini bajaradilar. Yozma ishni baholash 5 balli tizim asosida baholanadi. Mezonga ko'ra o'quvchi berilgan mavzuni asosli, to'liq ochib bersa, ishlab chiqarish va kasb tanlashga yo'llash asoslarini hozirgi kun talablari asosida ifodalay olsa 5 ball bilan baholanadi. Yozma ishning mazmuni, unda mavzuni bayon etrishdagi xato va kamchiliklarning oz-ko'pligiga qarab yozma ish 4, 3, 2, 1 yoki 0 ball bilan baholanishi mumkin.

O'quvchilar 8-sinfda "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limini o'tishda nazorat ishi sifatida "Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yiladigan talablar" mavzusida yozma ish yozishadi [29].

Yozma ishda quyidagi savollarga javob yozishlari kerakbo'ladi:

1. Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yiladigan talablar haqida yozish.
2. Kasb turlari haqida yozish.
3. Siz tanlagan kasb turi haqida yozish.
4. Siz tanlayotgan kasbning inson salomatligiga ta'siri haqida yozish.
5. "Hunar-hunardan rizqing unar" maqoli haqida yozish.

Biz mehnat ta'limidan darsdan tashqari tadbirlarni o'tkazish ssenariysini tuzishda yozma ish rejasidagi bandlarda alohida e'tibor bilan qaradik.

3.2. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda samaradorlikni oshirish uchun tayyorlangan ko'rsatmali materiallar.

3.2.1. Tayyorlangan plakatlar

Plakatlar standart sinf xonasining o'lchamlarini hisobga olgan holda 75x53 sm o'lchamda quyidagi mavzular bo'yicha tayyorlandi:


- 1-plakat. Kasblarning tasnifiy alomatlari (kasblarning tiplar, sinflar, bo'lim va guruhlar bo'yicha tasniflanishi, o'qituvchi kasbining formulasi).
- 2-plakat. Iqtisodiyot tarmoqlari (Kasblarni iqtisodiyotning biror tarmog'iga mansubligi orqali tasniflash keng tarqalganligi, iqtisodiyot tarmoqlari).
- 3-plakat. Kasbiy muvaffaqiyat omillari (kasbiy muvaffaqiyatning to'rtta guruhiga oid omillar).
- 4-plakat. Kadrlarni kasbiy tayyorlash tizimi (kadrlarni tayyorlash bosqichlari, Kasbiy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish, Abdurahmon Jomiyning kasb-hunar o'rganish haqidagi g'azalining ikki bani).

1-plakat

KASBLARNING TASNIFIY ALOMATLARI											
				KASB GURUHLARI (mehnat sharoiti)							
				M	O	G'	A				

			maishiy	ochiq havo	g'ayrioddiy	axloqiy javobgarlik						
KASB BO'LIMLARI (mehnat quroli)												
			Q qo'l	M mashina-qo'lli	A avtomatlashtirilgan	F funktSIONAL						
KASB SINFLARI (mehnat maqsadi)												
			G gnostik	O' o'zgartiruvchi			T tadqiqotchilik					
KASBLAR TIPLARI (mehnat predmeti)												
O-Tb odam-tabiat			O-Tx odam- texnika		O-O odam-odam		O-BT odam-belgili tizim		O-BO odam-badiiy obraz			

2-plakat

IQTISODIYOT TARMOQLARI		
Kasblarni iqtisodiyotning biror tarmog'iga mansubligi orqali tasniflash keng tarqalgan.		
  IQTISODIYOT	Tibbiyot	
	Boshqaruv tizimi	
	Huquqshunoslik	
	Ta'lim	
	Madaniyat va san'at	
	Savdo	

 	Mashinasozlik	
	Transport	
	Elektrtoenergetika	
	Ommaviy kommunikatsiya tizimi	
	O'rmon ho'jaligi	
	Agrosanoat ishlab chiqarishi	
	Oziq-ovqat sanoati	
	Radioelektronika va aloqa	
	Foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash	
	Xizmatlar sohasi	

3-plakat

KASBIY MUVAFFAQIYAT OMILLARI

Shaxsiy omillar (1-guruh)	Ma'lumot. Yosh. Kasb. Mehnat staji. Jins. Kasbiy malaka, ko'nikma, mahorat
Xizmat omillari (2-guruh)	Xizmat va kasbiy majburiyat. Odamning mehnat jamoasidagi mavqei. Mehnatga munosabat
Ishlab chiqarish omillari (3-guruh)	Korxona masshtabi. Moddiy rag'batlantirish darajasi. Tarmoq. Hududiy joylashuv

Bozor omillari (4-guruh)	Mehnat bozoridagi talab va taklif. Bozor konyukturasi (yuzaga kelgan ahvol, mavjud sharoit)
Yodda tuting! 	-kasbiy faoliyatingizda faqat va faqat o'zingizga suyaning; -o'zingizga va o'z imkoniyatingizga to'la ishonganingizda tahlkaga tushmaysiz, xavf-xatardan qo'rqmaysiz.

4-plakat


KADRLARNI KASBIY TAYYORLASH TIZIMI

Tayyorgarlik darajasi	O'quv yurtlari
Boshlang'ich	Umumta'lim maktablarining 8-9-sinflari, O'quv markazlari (kurslari)
O'rta	Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari
Oliy	Institut, universitet, akademiya, oliy harbiy bilim yurtlari
Kasbiy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish	
Davlat tomonidan	-inson sog'ligi, jamiyat hayotiga tegishli faoliyat va davlat xizmati bilan bog'liq kasblar (vrach, pedagog, sotsiolog, iqtisodchi, huquqshunos va b.) -diplom, sertifikat va boshqa hujjatlar
Ish beruvchi tomonidan	Oshpaz, chilangar, suvoqchi, payvandchi, g'isht teruvchi, duradgor, saralovchi va b.
Xaridor yoki iste'molchi tomonidan	G'isht quyuvchi, hovli supiruvchi, avtomobillarni yuvuvchi, farrosh, attor mollari sotuvchisi va b.
Katta miqdorda to'lov beriladigan va yuqori darajadagi javobgarligi mavjud	-uzoq vaqt bilim olish, doimiy o'z ustida ishlash; -har xil sinovlardan doimiy o'tib borish;


bo'lgan kasblarga qo'yiladigan talablar	-mehnat faoliyatining doimiy nazoratda bo'lishi.
	Odamning qiymati emas siymu zar, Odamning qiymati bilim ham hunar. <i>Abdurahmon Jomiy</i>

3.2.2. Tayyorlangan tarqatmali materiallar

Tarqatma materiallar 105x75 mm o'lchamda qalin fotoqog'ozda rangli ko'rinishda 48 dona (3 ta variantda 16 tadan) tayyorlandi.

<u>Kasblarni sharhlang</u> -kasb nomi; -kasb tipi (mehnat predmeti); - kasb sinfi (mehnat maqsadi); - kasb bo'limi (mehnat quroli); - kasb guruhi (mehnat sharoiti).	<u>Kasblarni sharhlang</u> -kasb nomi; -kasb tipi (mehnat predmeti); - kasb sinfi (mehnat maqsadi); - kasb bo'limi (mehnat quroli); - kasb guruhi (mehnat sharoiti).	<u>Kasblarni sharhlang</u> -kasb nomi; -kasb tipi (mehnat predmeti); - kasb sinfi (mehnat maqsadi); - kasb bo'limi (mehnat quroli); - kasb guruhi (mehnat sharoiti).
		
Kasb tanlashga yo'naltirish buyicha piktogramma		

		
“Odam-odam”, o’zgartiruvchi, qo’l, maishiy		
		
“Odam-odam”, o’zgartiruvchi, qo’l, maishiy		
		
“Odam-odam”, funktsional, qo’l, maishiy		
		
“Odam-odam”, o’zgartiruvchi, funktsional, axloqiy javobgarlik		




“Odam-odam”, tadqiqotchilik, qo’l, axloqiy javobgarlik



“Odam-belgili tizim”, mashina-qo’lli, maishiy




“Odam-belgili tizim”, mashina-qo’lli, maishiy



“Odam-badiiy obraz”, o’zgartiruvchi, qo’l, maishiy

		
“Odam-texnika”, o’zgartiruvchi, mashina-qo’lli, maishiy		
		
“Odam-texnika”, gnostik, mashina-qo’lli, g’ayrioddiy		
		
“Odam-texnika”, gnostik, mashina-qo’lli, g’ayrioddiy		
		
“Odam-tabiat”, o’zgartiruvchi, mashina-qo’lli, ochiq havo		



3.3. O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish bo’yicha darsdan tashqari tadbir ssenariysi.

Sinf: 8.

Mavzu: Mening kasbim –mening iftixorim!

Boshlovchi:

O’zbek xalqiga odat,
Avvalo bermoq salom.
Shuning uchun chin dildan
Deymiz sizga –“Assalom”,
Sizgadir shirin kalom.

Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar va qadrlı o’quvchilar. Bugun biz 8-sinf o’quvchilari o’rtasida o’tkaziladigan “Mening kasbim-mening iftihorim” mavzusidagi ko’rik-tanlovga yig’ilganmiz. Ijzotingiz bilan ko’rik tanlovni ochiq deb e’lon qilaman.

Tanlovda 8-sinflarning iqtidorli, iste’dodli va faol o’quvchilaridan 2 ta guruh tuzilgan. Ular quyidagi bosqichlar bo’yicha o’zaro bellashadilar.

1-bosqich: Tanishtiruv. Bunda guruhlar o’zlarini tanishtiradilar (3 daqiqadan).

2-bosqich: Kasb-hunarga oid maqollar aytishuvi. Bunda har bir guruhdan bir nafardan o’quvchi o’zaro bellashadi (5 daqiqa).

3-bosqich: Badiiy qism. Bu bosqichda guruhlar kasbga doir qo’shiq yoki raqs ijro etib beradilar (5 daqiqa).

4-bosqich: Savol-javob. Har bir guruh 6 tadan savolga javob beradi (5 daqiqa).

5-bosqich: Hudoyberdi To’htaboyevning “Sariq devni minib” asaridan sahna ko’rinishini ijro etish (7 daqiqadan).

6-bosqich: Berilgan plakatlarni izohlash (3 daqiqadan).

7-bosqich: Berilgan tarqatmali materiallarni izohlash (2 daqiqadan).

Ruhsatingiz bilan Siz aziz tomoshabinlarni hakamlar hay'ati bilan tanishtirib o'tamiz.

1. Jalilov Ahadxon - hay'at raisi, ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari.
2. Rahimbayeva Feruzaxon - hay'at a'zosi, mehnat o'qituvchisi.
3. Qodirova Atikaxon - hay'at a'zosi, mehnat o'qituvchisi.
4. Maqsudova Zulfiya - hay'at a'zosi, ona tili o'qituvchisi.
5. Ergasheva Hulkarxon - hay'at a'zosi, geografiya o'qituvchisi.

Endi guruhlarimiz bilan tanishib olamiz. "Huquqshunos" nomli 1-guruh va "Muallim" nomli 2-guruh qatnashchilarini davraga taklif etamiz. Marhamat, sahnadan o'z joylaringizni egallashingizni so'raymiz. Boshlovchi guruh qatnashchilarini birma-bir tomoshabinlarga tanishtirib o'tadi.

"Huquqshunos" guruhi qatnashchilari (8^A)-sinf o'quvchilari:

Abdulhatova Mohira, Bo'stonov Javlonbek, Fayzullayev Nozimjon, Mahmudova Saida, Qaxxarova Toiba, Yusupjanov Qosimjon.

"Muallim" guruhi qatnashchilari (8^B)-sinf o'quvchilari:

Abdusalomova Tadina, Ismailova Madina, Nuriddinova Hurshida, Sattarov Lutfiddin, Yo'ldashev Ibrohim, Toshpo'latova Robiya.

Boshlovchi: Birinchi bosqichni boshlab berish uchun navbatni "Huquqshunos" guruhiga beramiz. Marhamat.

O'quvchi: Tog'lardan boshlanar kalomning boshi,

Salom deb chiqar yurtning quyoshi.

Shu ulug' yurtimning buyuk kalomu bu,

Hammamizdan buyuk salomu bu.

O'quvchi: Biz hozirgi kelajak avlodlar oldida yuksak mas'uliyatni anglagan holda va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligimizni isbotlagan holda,

O'quvchi: O'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribalariga tayanib,

O'quvchi: Demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatni namoyon qilib,

O'quvchi: Xalqaro huquqni umume'tirof etilgan qoidalar ustunligini tan olgan holda,

O'quvchi: Respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib,

O'quvchi: Insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab,

O'quvchi: Fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlashga qasamyod qilamiz.

O'quvchi: Qayerda bo'lsaki qonun hukmron,

Erkinlik shu yerda, der Temur bobom.

Qonun so'z, qonun ko'z u qalqon, posbon,

Unda ardoqlanar inson degan nom.

Tanishtiruv bosqichini davom ettirish uchun navbatni "Muallim" guruhiga beramiz. Marhamat.

O'quvchi: Bosh egurmiz qarshingizda ta'zim aylab umrbod,

Bugun ulug' bayramda salom deymiz nomma-nom.

O'quvchi: Shogirdlarning nomidan deymiz: Salom-assalom.

O'quvchi: Muallimdir nomimiz, sharaflı mehnatimiz.

Kuylay baland, ardoqlay, shogirdlik tuzin oqlay.

O'quvchi: Agar hayot bo'ston bo'lsa, bog'bon Muallim,

Agar hayot karvon bo'lsa, sarbon Muallim.

O'quvchi: Agar hayot dengiz bo'lsa, gavhar Muallim,

Agar hayot kitob bo'lsa, so'zi Muallim.

O'quvchi: Chunki udir har insonga beruvchi ta'lim,

Ta'lim so'zi har narsadan ulug' Muallim.

O'quvchi: Aziz uztozlar shunday so'zimiz, chin unsonlarning o'g'il-qizimiz.

Ustoz o'gitiga, sadoqatiga, doim tayyormiz bizning o'zimiz.

Hakamlar baholarni e'lon qiladilar.

Boshlovchi: 2-bosqichni boshlash uchun davraga Huquqshunos va "Muallim" guruhidan bir nafardan ishtirokchini sahnaga taklif etamiz. Ular kasb- hunarga doir maqollar aytishuvibo'yicha bellashadilar. Marhamat.

"Huquqshunos": Bo'zchi belboqqa yolchimas, kulolchi-mo'ndiga.

"Muallim": O'gri bilan yo'ldosh bo'lma.

"Huquqshunos": Xokim bo'lsang xalqni bilgin.

"Muallim": Olim bo'lsang, olan seniki.

"Huquqshunos": Ota kasbi- davlat kasbi.

"Muallim": Tekin boylik axtarguncha, o'zingga bop hunar top.

"Huquqshunos": Temirchining qo'lida temir erib suv bo'lar.

"Muallim": Tikansiz gul bo'lmas, mashaqatsiz hunar.

"Huquqshunos": Ovchi ov qidirar, konchi kon qidirar.

"Muallim": Usta ko'rmagan shogird, har maqomga yo'rg'alar.

"Huquqshunos": O'qigan -yorug'likda, o'qimagan-qorong'ulikda.

"Muallim": O'qiganning oshig'i olchi.

"Huquqshunos": O'qish boshqa-uqish boshqa.

"Muallim": Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin.

"Huquqshunos": O'qigan o'g'il – otadan ulug'.

"Muallim": Qunt bilan o'rgan hunar, hunardan risqing unar.

"Huquqshunos": Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining.

"Muallim": Hunarli-zar, Hunarsiz-hor.

"Huquqshunos": Hunarli kishi och qolmas.

"Muallim": Hunarli er xor bo'lmas, do'st-dushmanga zor bo'lmas.

"Huquqshunos": Husniga emas, hunariga boq.

"Muallim": Dehqon kasbini xo'rlamas.

"Huquqshunos": Dehqon ekanin olar, bog'bon –tikkanin.

"Muallim": Aql ko'pga yetkazar, hunar-ko'kka.

"Huquqshunos": Joni borning g'ami bor, kasbi-kori nomi bor.

"Muallim": Ilmu hunar yelga emas, elga.

"Huquqshunos": Yigit husni –hunar.

"Muallim": Kasb-kasb, tubi nasib.

"Huquqshunos": Yuz hunarni chala bilgandan, bir hunarni to'la bil.

"Muallim": Har kasbning o'z gashti bor.

Hakamlar hay'ati bahoni e'lon qiladi.

Boshlovchi: Muxlislarga savol: hozir sahnadan o'tgan o'quvchi qanday kasbni eslatdi? (Sahnada aravani yetaklagan, usti-boshi abgor shaxs po'sh-po'shlab o'tib ketdi, davrada biroz kulgi ko'tarildi.)

Muxlislardan biri: aravakash-dedi. (to'g'ri javob bergani uchun taqdirlandi.)

Boshlovchi 3-bosqichni e'lon qiladi.

Huquqshunos guruhi qatnashchilari "Do'ppi tikdim ipaklari tillodan" qo'shig'ini aytib raqsga tushadilar:

Do'ppi tikdim ipaklari pillodan.
Ipaklari demang zarrin tillodan.
Jilov bersam gullariga-a-a-a-a
Ko'zing olur bezaklari tillodan.
Uning otashiga solma guli lola,
Uning otashiga olma guli lola.
Dili pora yigit kuyla dilim sanda,
Yana kuyla baland, kuyla baland,

Ochsa dilim zora-dilim zora.

Muallim guruhi qatnashchilari "Muallim" qo'shig'ini kuylashadi.

O'quvchim deb erkalab,
Qo'llarimdan yetaklab,
Berdingiz bizga ta'lim,
Rahmat, ustoz Muallim.
Kechalari uxlamay,
Ko'zning nurin sochdingiz.
Biz kabi shogirdlarga
Bilim sirin ochdingiz.
Yangratib ko'ngil bog'in
Sizga izxor etayin,
Siz kabi uztozlarga
Ming bir ta'zim etayin.

Hakamlar hay'ati baholarni e'lon qiladi.

Boshlovchi ikkala guruh ishtirokchilarini davraga taklif etib, 4-bosqichni boshlaydi va har bir guruhga 3 tadan savol beradi.

1-guruhga 1-savol: 13-14 asrlarda Amir Temur hukmronligi davrida saltanatning kirim-chiqim hisobini 2 ta vazir olib brogan. Hozirda tashkilot va muassalarda ana shu faoliyatni olib boruvchilarni kim deb ataladi? (javob: hisobchi yoki buxgalter).

2-guruhga 1-savol: Amir Temur yurtni obod qilish, binolar, madrasalar, ko'priklar qurishga kimlarni jalb etgan? (javob: memor, usta, naqqosh, olim kabilar).

1-guruhga 2-savol: Kasbni egallash uchun qanday sarflarni amalga oshirish kerak? (Ta'lim olish, ishga joylashish, ma'naviy sarflari).

2-guruhga 2-savol: Kasbni egallagan kishi mehnat faoliyati davomida qanday manfaat ko'radi? (Maosh oladi, ijtimoiy muhitda o'z o'rniga ega bo'ladi, insonning o'zini namoyon qilish qobiliyati yuzaga chiqadi).

1-guruhga 3-savol: Kasb tanlayotgan kishida qanday xislatlar bo'lishi kerak? (bilimga chanqoqlik, mehnatsevarlik, tirishqoqlik fazilatlar).

2-guruhga 3-savol: Kasb tanlash ostonasida turgan kishini qanday o'y-hayollar qamrab oladi? (niyat, tilak, havas, hayol, orzu, armon).

Hakamlar hay'ati bahoni e'lon qiladi.

Boshlovchi: Sizlarning e'tiboringizga ko'rik-tanlovning 5-bosqichni havola etamiz. Guruhlar X.To'htaboyevning "Sariq devni minib" asaridan sahna ko'rinishlarini ijro etadilar. Sahnaga Huquqshunos guruhini taklif etamiz. Marhamat.

Sahnaga kiyimi g'ijim va sal kirroq holatda asar qahramoni Hoshimboykirib keladi.

-Orif!

-Nima deysan?

-Chiq dars tayyorlaymiz

-O'zing chiq qol.

-Nima deding?

-O'zing chiq qol deyapman, nima qulog'ing karmi?

Hoshim sahnadan chiqib ketayotganida oyisi chaqirib qoladi.

-Hoshim!

-Labbay, oyijon.

-Nega tovuqlarga don bermading?

Oyisidan qo'rqqan Hoshim muloyimlik bilan shunday deydi:

-Nima dedingiz oyi?

-Nega tovuqlarga don bermading, nima qulog'ing devorning ostida qolganmi?

-Ovqatni o'zi topib yesin-da. Tokaygacha tekinxo'rlik qilishadi.

-Voy o'lmasam, suv ham bermaganga o'xshaysan.

-Oyi tovuqlar suv ichmaydigan bo'lib ketishgan...

-Shunaqami?

-Ha, shunaqa...

Hoshimning oyisi kaltak olib quvlay ketadi. Hoshim esa sal uzoqroqqa borib:

-Bir haftadan beri suv berganim yo'q. Tuxumni bir yo'la poroshok qilib tug'aversin.

-Teringga somon tiqmasammi!

Biroz vaqtdan keyin:

-Hoshimjon bugun qanaqa baho olding, o'g'lim?

-Besh-da, oyijon. Bizniki doimo besh.

-Barakalla, o'g'lim, qani kundaligingni olib kelchi?

-Kundaligim o'qituvchimizda qolgan.

-Pap kangni och deya pman!

Iloji qolmagan Hoshim papkasini shumshayib ochdi)

-Bu nima?

-Ikki.

-Bunisi-chi?

-Uch.

-Nega yolg'on gapirding?

-Kim yolg'on gapiribdi? Ikkovini qo'shsa besh bo'ladi, oyijon!

-Shunaqami?

-Shunaqa...

(Oyisi qoshlarini chimirib, qo'llari qaltirab kundalikni varaqlashda davom etadi).

-Bu nima?

-Ikki oyijon.

-Bunisichi?

-Bunisi fizikadan olingan baho,

-Xo'p, mana bunisiga nima deysan?

-Hech narsa deyolmayman, lekin, oyijon, uchovini qo'shsa besh bo'ladi.

-Shunaqami?

-Shunaqa...

-“Ha o'sha” -deya oyisi o'g'lini quvlab chiqib ketdi.

Boshlovchi: Sahnaga Muallim guruhini taklif etamiz. Marhamat.

Dalada bir bola g'o'za chopib yuribdi. Hoshimboy kelib qoladi.

-Hoy bola, xorma!-dedi Hoshim g'o'za chopib yurgan bolaga qarab.

-Ishingni qil-dedi boshini ko'tarmay bola.

-Horma, deya pman.

-Ishingni qil deya pman,- shunday deb notanish bola boshini ko'tardi. Ko'tardi-yu, uyalganidan yuzi qizarib ketdi.

-Kechirasiz,-dedi peshonasining terini artib, -men sizni o'zimizning Shavkat deb o'ylabman.

-Kechirasiz, -dedi Hoshim ham hurmatni joyiga qo'yib,

-Bu qaysi mamlakat?

-Nima?

-Qaysi mamlakat deya pman?

-Mamlakat emas, Mirzacho'l.

-E, anavi gazetadagi Mirzacho'l shu yerlarmi?

-Gazetadagi emas, Mirzacho'ldagi Mirzacho'l,-tushuntirdi notanish bola.

-Bu yerda nima qilyapsiz ?

-O't yulyapman.

-Bu g'o'zalar kimniki?

-Bizniki.

-Nega endi sizniki bo'larkan?

-Ana shu ko'rib turganingiz uch gektar yerdagi g'o'zani oltovimiz ekanmiz, o'zimiz parvarishlayapmiz. Hosilini ham mashinada o'zimiz yig'ishtirib olmoqchimiz.

-Sizlarga agronom kerak emasmi?

-Yo'q, -dedi bola boshini chayqab, -biz o'zimiz bo'lajak agronomlarmiz.

Hoshim gapni cho'zib o'tirmasdan narigi kartaga o'tib ketdi. Ikkita bola qovun chopiq qilish bilan ovora edi.

-Nima qilyapsizlar?

-Ikkinchi chopiq qilyapmiz.

-Sizlarga agronom kerak emasmi?

-Yo'q, kerak emas.

-Nega endi kerak bo'lmas ekan? Ehtimol kerakdir?

-Bizning o'zimiz agronommiz...

Tovuqlarga don berib yurgan, hadeb tuxum yeyaveradigan bo'lsa kerak oshqovoqdek semirib ketgan sariq sochli bir qizdan:

-Bu tovuqlar kimniki?

-Bizniki, -dedi hozirgina archilgan kattagina tuxumni og'ziga solib.

-Tuxumni kimga berasan?

-O'quvchilarga.

-Uy vazifalarini bajarilmaganlarga ham beriladimi?

-Unaqalar bizda yo'q.

-Bordi-yu, bitta yarimta topilib qolsa-chi?

-Bor, ishingni qil, -dedi sariq sochli qiz yana bitta tuxumni og'ziga solib, -ovuqlarimni hurkitib yuboryapsan.

-Menga qara, -sizlarga zootexnik kerak emasmi?

-Zootexnikni nima qilamiz?

-Ish o'rgatadi-da.

-Unaqasidan o'zimizda ham to'lib yotibdi, -dedi sahnadan chiqib ketishdi.

Hakamlar hay'ati 5-bosqich baholarini e'lon qiladi.

Boshlovchi: Sizlarning e'tiboringizga ko'rik-tanlovning 6-bosqichini havola etamiz. Sahnadagi stol tepasida to'rtta plakat orqasi bilan qo'yilgan. Guruh sardorlari navbati bilan kelib stoldagi plakatlardan ikkitadan olishlari va belgilangan vaqt oraligida ularni tushuntirib berishlari kerak.

Marhamat qilib guruh sardorlarini stol oldiga taklif etamiz. Har ikki sardor navbati bilan plakatlardan olishini so'raymiz. Sardorlar o'zlari tanlab olgan plakatlarni tomoshabinlarga ko'rsatishadi va guruhlari oldiga borib ular bilan tanishishni boshlashadi.

Boshlovchi vaqtning tugaganini e'lon qiladi. Har bir guruhdan bir nafardan qatnashchi chiqib bittadan plakatni tushuntiradi.

O'quvchilarning javoblarini hakamlar hay'ati eksperti-mehnat ta'limi o'qituvchisi tahlil etadi, zarurat bo'lsa to'ldiradi.

Hakamlar hay'ati 6-bosqich baholarini e'lon qiladi.

Boshlovchi:

Sizlarning e'tiboringizga ko'rik-tanlovning 7-bosqichini havola etamiz. Sahnadagi stol tepasida 10 tadan tarqatmali material orqasi bilan qo'yilgan. Guruhlar qatnashchilari (bir marta "Huquqshunos", bir marta "Muallim" guruhi qatnashchisi) navbati bilan kelib stoldagi tarqatmali materiallardan bir donadan olishlari va o'sha zamoni unda qanday kasbga oid rasm borligini tishintirishlari kerak bo'ladi. To'g'ri javob berilgan tarqatmali materiallar sahnadagi yozuv taxtasining guruhga tegishli qismiga osib qo'yiladi. Qaysi guruh ko'p tarqatmali material to'plagan bo'lsqa, o'sha g'olib hisoblanadi.

Boshlovchining ko'rsatmasi bilan guruhlar qatnashchilarini stolning ikki qarama-qarshi tomoniga bir qator bo'lib tomoshabinlarga qarab safga tizilishlarini taklif etamiz. Qatnashchilar navbati bilan tarqatmali materiallarni olib javob berishni boshlashadi. Boshlovchi hakamlar hay'ati eksperti-mehnat ta'limi o'qituvchisi to'g'ri deb aytgan tarqatmali materiallarni yozuv taxtasining tegishli guruh qismiga osib qo'yadi.

O'yin so'nggida har bir guruh to'g'ri topgan tarqatmali materiallar tomoshabinlar ishtirokida sanab chiqiladi va g'olib guruh boshlovchi tomonidan e'lon qilinadi.

Hay'at raisi Jalilov A. so'zi: Qadrli o'quvchilar, mana hozir biz har ikkala guruhning chiqishlarini tomosha qildik. Ular tadbirga juda yaxshi tayyorgarlik ko'rishganligi, ko'p kitoblarni o'qiv chiqqanliklari sezilib turibdi. Ayniqsa, tadbirning oxirgi shartidagi sahna chiqishlari juda ham qiziqarli ijro etildi. Guruh qatnashchilarini tayyorlagan mas'ullarga katta minnatdorchilik bildiramiz.

Hay'at a'zolari tomonidan guruhlarining umumiy baholari asosida g'olib guruh aniqlanadi. G'olib guruh hamda faol qatnashgan o'quvchilar sovg'alar bilan mukofotlanadi.

Hay'at raisi tadbirni yakunlar ekan quyidagi fikrlarni bildiradi:
-“Vatanimiz mustaqil bo'lganidan beri yurtimizda juda katta yaratuvchilik ishlari amalga oshirilmoqda. Shahar va qishloqlarimizda bo'layotgan o'zgarishlarni ko'rib ko'nglingiz yayraydi.

Ayniqsa, ta'lim tizimida katta islohotlar amalga oshirildi. Bilim olish, kasb-hunar egallash uchun, siz yoshlarga beqiyos imkoniyatlar eshigi ochib qo'yilgan. Bizning yoshlik davrimizda o'qimoqchi bo'lganlar mamlakatimizning shaharlariga, poytaxtga borishlari shart bo'lar edi. Chunki, tumanlarda bilim dargohlari kam umuman yo'q edi. Qishloqlarni-ku qo'yaverasiz. O'sha davrlarni bugungi kun bilan solishtirsak, bugungi yoshlarimizga o'qish va kasb-hunar o'rganish uchun yaratib berilayotgan sharoitdan mamnunlik xissini tuyasiz. Viloyatimizda bugungi kunda 10 ta akademik litsey va 108 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatmoqda. E'tiborga loyiq jihati shundaki, eng chekka qishloqlarda ham zamonaviy arxitektura talablari asosida qurilgan kasb-hunar kollejlari yoshlarimiz kasb-hunar sirlarini o'rganmoqdalar.

Mamlakatimiz xalq ho'jaligi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Yurtimizda chet ellik hamkorlar bilan birgalikda ta'sis etilgan va ishlab chiqarish jarayonlari zamonaviy hamda kompyuter texnologiyalari, roborlar bilan boshqariladigan ko'plab qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Xozir ishlab chiqarishdagi oddiy operatsiyani bajaruvchi ish o'rinlari ham zamonaviy boshqaruv apparatlari bilan jihozlangan bo'lib, ularda ishlash uchun odamdan katta bilim, ko'nikma va malaka talab etiladi.

Mustaqil hayotga qadam qo'yar ekansiz, ertangi kunda ana shu ish o'rinlarida sizlar faoliyat ko'rsatasiz, vaqti kelib o'sha korxonalarni boshqarasiz. Buning uchun zamonaviy bilimlarni egallashingiz lozim bo'ladi.

So'nggi yillarda yurtimizda ishlab chiqarish korxonalari bilan bir qatorda ko'plab zamonaviy uy-joylar, yo'llar, ko'priklar va boshqa muhandislik inshootlari qurilmoqda. Ularda ishlash uchun malakali quruvchi kasblarini egallagan yoshlar kerak bo'lmoqda.

Yaqinda poytaxtimiz Toshkent shahrida bo'lib o'tgan dunyodagi eng nufuzli oliy o'quv yurtlari rektorlari ishtirokidagi xalqaro anjumanda e'tirof etilishicha, bugungi kunda ham davom etayotgan jahon moliyaviy inqirozi sharotida O'zbekistonimiz shahdam odimlar bilan o'lg'a qadam bosib rivojlanmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida ulkan darajadagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlari orasida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimining barpo etilishi va uning to'la quvvat bilan faoliyat ko'rsatayotganligi natijasida har tomonlama yetuk, bilimli va raqobatbardosh kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda.

2011-yil 26-noyabrda Toshkent shahrida “O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: “Sog'lom ona-sog'lom bola” mavzuida xalqaro simpozium” bo'lib o'tdi. Simpoziumda e'tirof etilishicha, mamlakatimiz 2011-yilda “Bolalarni asraylik” xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida 161 davlat orasida 9-o'rinni egalladi.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish natijasida mamlakatimizda qishloq vrachlik punktlari, tuman va shahar tibbiyot birlashmalari, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, murakkab yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatib kelmoqdalar.

Oxirgi o'n yillikda davolash-profilaktika muassasalari modernizatsiya qilinib eng zamonaviy laboratoriya, tashxis va davolash uskunalari bilan jihozlandi. Bu esa o'z navbatida sog'liqni saqlash tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot xodimlari oldiga katta mas'uliyat qo'yish bilan bir qatorda yuqori malakali, bilimli va tajribali bo'lishni talab etmoqda. Masalan, xozirgi zamon tibbiyot hamshirasi ham zamonaviy apparatlar, kompyuter texnikasidan foydalanmay turib kundalik vazifalarini talab darajasida bajara olmaydi.

Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Fikrimizni umumlashtirib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, kishi qayerga ishga bormasin, undan zamon darajasidagi bilim, malaka va ko'nikmalar talab etiladi. Buning uchun ko'p o'qish, o'rganish va qobiliyati, qiziqishi, mayliga mos keladigan kasbni chuqur egallash uchun maktab partasidan boshlab tinmay harakat qilishi kerak.

Hurmatli mehmonlar va tadbir qatnashchilari! Guruhlarni tayyorlagan ustozlar, tadbirning qiziqarli va mazmunli o'tishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy ishlarda faol qatnashgan, sahnani tadbir mazmuniga mos holda bezatgan, jihozlagan va tadbirning tashkiliy tomonlarini bajarishda jonbozlik ko'rsatgan o'quvchilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.”.

Boshlovchi:

Sahnaga har ikkala guruh ishtirokchilarini taklif etamiz. Sizlarning ijozatingiz bilan tadbir qatnashchilariga mazmunli chiqishlari uchun minnatdorchilik bildiramiz. Ularning o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish bo'yicha maktab pedagogik jamoasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlardagi yordamlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Shu bilan bugungi tadbirimizni yakunlaymiz. E'tiboringiz uchun, rahmat.

Guruh qatnashchilari tomoshabinlarning qarsaklari ostida sahnadan chiqib ketadilar.

Bob bo'yicha xulosalar:

- mehnat ta'limidan darsdan tashqari tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, kasblarning targ'iboti va tashviqotini olib borish uchun katta imkoniyatlar mavjud;
- darsdan tashqari tadbirlarda adabiy asarlardan foydalanish o'quvchilarda milliy va zamonaviy kasblarga qiziqtirishda alohida ahamiyatga ega.
- o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda Mirmuhsinning “Me'mor”, Xudoyberdi To'htaboyevning “Sariq devni minib” kabi o'zbek milliy adabiy asarlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.
- darsdan tashqari tadbirlarni o'tkazishda noan'anaviy usullarni qo'llash tadbir maqsadini amalga oshirish samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning aholini ish bilan ta'minlash, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid fikr-mulohazalarida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor berilgan. “Ta'lim to'g'risida” Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy

dasturi”ni amalga oshirish orqali mamlakatimiz xalq ho’jaligiga bilimli, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy izlanuvchan, yuqori malakali, ma’naviyati yuksak mutaxassis kadrlarni tayyorlab berish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Umumta’lim maktablarida davlat ahamiyatidagi bu vazifani an’anaviy o’qitish uslublari orqali amalga oshirib bo’lmaydi. Shu bilan birga faqat dars mashg’ulotlari bilan chegaralanib qolish ham umumta’lim maktabi uchun hayotiy muhim vazifa sifatida o’quvchilarni kasb tanlashga yo’naltirishda yetarli bo’lmay qolmoqda.

O’quvchilarda xalq ho’jaligining zamonaviy kasb-hunarlarini haqida yetarli va har tomonlama tushunchalarni shakllantirishda mehnat ta’limi o’quv fanidan o’tkaziladigan darsdan tashqari turli xil tadbirlar ham ko’p jihatdan muhimdir.

Umumta’lim maktabi o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish nuqtai nazaridan quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- o’quvchi shaxsini kasbga yo’naltirish bo’yicha o’rganadi;
- maktab tibbiyot xizmati xodimlari o’quvchi shaxsining salomatligini kasbga yo’naltirish bo’yicha o’rganadi;
- umumta’lim fanlari o’qituvchilari fan asoslari doirasida o’quvchilarni kasb tanlashga yo’llaydi;
- mehnat ta’limi o’qituvchisi o’quvchilarda boshlang’ich mehnat va kasb malakalarini shakllantiradi, kasblar haqida boshlang’ich ma’lumotlar, tasavvurlar hosil qilish orqali ularni kasb-hunarga yo’naltiradi.

Umumta’lim maktabidagi turli xil o’quv fanlaridan dars mashg’ulotlari samarasini oshirish bo’yicha ko’plab uslubiy ishlar bajarilgan. Xususan, mehnat ta’limining amaliy mashg’ulotlariga ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o’quvchilarni dars jarayonida kasb-hunarga yo’naltirish ishlari keng o’rganilgan.

Mehnat ta’limi o’quv predmetidan darsdan tashqari turli xil tadbirlarda kasb-hunarga yo’naltirish masalalarini ishlab chiqishda pedagog olimlar, tadqiqotchilar, tajribali va ko’zga ko’ringan o’qituvchilar oldida bajarilishi zarur bo’lgan bir qator vazifalar turibdi.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalardan kelib chiqib shunday hulosalar chiqarish mumkin:

- umumta’lim maktablari o’quvchilarini kasb tanlashga yo’naltirish-hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biri;
- mehnat ta’limi o’quv predmetining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib va unda mavjud bo’lgan qulay shart-sharoitlardan unumli foydalanib o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin;
- o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishda dars mashg’ulotlari bilan bir qatorda darsdan tashqari tadbirlardan ham unumli foydalanish kerak;
- mehnat ta’limi bo’yicha umumta’lim maktablari o’qituvchilari uchun mo’ljallangan uslubiy qo’llanma va tavsiyalar yetarli emas.

Men bitiruv malakaviy ishimda mehnat ta’limini umumta’lim maktablarida o’qitishda nisbatan kamroq e’tibor berilgan hamda o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishda ularning darsdan tashqaridagi bo’sh vaqtlaridan unumli foydalanish uchun darsdan tashqari tadbirlarni o’tkazishni tanlab olishimga yuqoridagi mulohazalar turtki bo’ldi.

“O’quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarda badiiy asarlardan foydalanib kasbga yo’llash” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. O’zbekistonda ijrmoiy-iqtisodiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil etildi.
2. Tanlab olingan “O’quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarda badiiy asarlardan foydalanib kasbga yo’llash” mavzusi asoslandi.
3. Mehnat ta’limi, o’qitishning ilg’or pedagogik texnologiyalari bo’yicha bir qator adabiyotlar tahlil etildi.
4. BMIni bajarish davomida 29 nomdagi adabiyot bilan tanishib chiqildi va foydalanildi.
5. O’qitishning noan’anaviy usullarini o’quv jarayoniga tadbiriq etish masalalari o’rganib chiqildi.

6. 8-sinf mehnat ta'limi dars mashg'ulotlarining huquqiy-meyoriy hujjatlari (Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti, mehnat fani o'quv dasturi, uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar, 8-sinf mehnat ta'limi predmetining "Texnologiya va dizayn" yo'nalishi ishchi dasturi) va "Kasb tanlashga yo'naltirish" bo'limi bo'yicha o'quv-moddiy baza o'rganib chiqildi.

Erishilgan natijalar:

- ✓ 8-sinf o'quvchilari o'rtasida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha o'tkaziladigan "Mening kasbim –mening iftixorim!" mavzusidagi tadbir ssenariysi ishlab chiqildi.
- ✓ Darsdan tashqari tadbir va bevosita dars mashg'ulotida foydalanish uchun 4 ta plakat va 32 ta tarqatma material tayyorlandi.
- ✓ Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha bajarilgan ishlar Namangan shahridagi 13-umumta'lim maktabida tajriba-sinovdan o'tkazildi va uning natijalari bo'yicha maktab ma'muriyatidan ijobiy xulosa olindi.

Kelgusi rejalar:

- ✓ Darsdan tashqari tadbirlar o'tkazishni yanada takomillashtirish.
- ✓ O'quvchilarni eng zamonaviy va xalq ho'jaligi talablaridan kelib chiqib kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov.I.A. O'zbekiston mustaqillik erishish ostonasida. Toshkent. "O'zbekiston". 2011. 210-bet.
2. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat". 2008. 95-bet.
3. Karimov.I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 238-son. 8-dekabr, 2011.
4. Karimov.I.A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisi to'g'risida axborot. "Xalq so'zi" gazetasining 203-soni. 20-oktyabr, 2011-yil.
5. Karimov.I.A. "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror. "Xalq so'zi" gazetasining 232-soni. 30-noyabr, 2011-yil.
6. Karimov.I.A. "Inson xotirasi-boqiy, qadr-qimmat-ulug'". "Xalq so'zi" gazetasi. 91-son. 10-may, 2012-yil.
7. Karimov.I.A. "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 451-sonli farmon. 2006-yil 25-avgust.
8. "Sog'lom ona-sog'lom bola" mavzuidagi xalqaro simpozium materiallari. "Xalq so'zi" gazetasining 231-soni. 29-noyabr, 2011-yil.
9. N.N.Azizho'jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
10. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashhis markazi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish yuzasidan maktab direktorlari kasb-hunarga yonaltiruvchilar va sinf rahbarlari uchun tavsiyalar. Toshkent. 2008.
11. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda qo'llaniladigan psixologik- pedagogik tashxis metodikalari. Toshkent. 2006.
12. G. Burxanova. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari va amaliyotchi psixologlari uchun psixologik-pedagogik tashxis daftarini yuritish yuzasidan tavsiyalar. Toshkent. 2005.
13. Sh.Ergashev S.Alimxodjayev. Yakkasaroy tumanidagi kasb-hunarga yo'naltirish ishlari. Maktab va hayot. Ilmiy ommabop jurnal 2002-yil 3-son. 7 bet.

14. A.Shukurov, B.Ashurov. Tarixiy mavzudagi dasturlarda kasb-hunarning ulug'lanishi. Maktab va hayot. Ilmiy ommabop jurnal. 2003-yil 4-son, 9 bet.
15. M.Nugmanova. "Innovatsion texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga joriy etishning nazariy va amaliy masalalari" mavzusidagi Respublika oliy o'quv yurtlari iqtidorli talabalari, magistrleri va ularning ilmiy rahbarlarining ilmiy-amaliy anjumani. Andijon Davlat universiteti. 2001-yil, 5-6-aprel. 107-109-betlar.
16. R.G.Mumahmetov. Kasbga yonaltirishning tarbiyaviy ahamiyati. Maktab va hayot. Ilmiy ommabop jurnal. 2007-yil 2-soni 2-bet.
17. A.Jalolov. Kasb qanday tanlanadi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2011. 40-bet.
18. Ulug'bek Normirzayev. Dollar dardida yonganlar. "Diyonat" gazetasi, №51-52, 29.12.2011, 3-bet).
19. G.Asatova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirishning ba'zi omillari. Maktab va hayot. Ilmiy ommabop jurnal. 2009-yil 1-son. 15-bet.
20. S.Jo'rayev. Shaxsning kasbiy shakilanishiga bag'ishlangan psixologik g'oyalar va pedagogik faoliyatning diagnostikasi. Maktab va hayot. Ilmiy ommabop jurnal. 2006-yil, 2-son, 20-bet.
21. O'zbekiston Respublikasida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. Maktab va hayot. Ilmiy ommabop jurnal. 2002-yil, 5-son. 5-bet.
22. A.V.Tsoy. Sening kasbing. Maktab va hayot. Ilmiy ommabop jurnal. 2002-yil, 5-son. 10-bet.
23. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichi. Toshkent. 2006-yil.
24. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent. "O'qituvchi". 2006. 37-bet.
25. Mirmuhsin. Memor. Toshkent. "Sharq". 2001.
26. X.To'htaboyev. Sariq devni minib. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2011. 35-bet.
27. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Mehnat ta'limi. Toshkent. 2010.
28. Mehnat ta'limi fanidan uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-rejalar (1-9-sinflar). Toshkent. "Sharq". 2010.
29. Mehnat ta'limi fanidan uzviylashtirilgan o'quv dasturlari asosida nazorat ishlarini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar (1-9-sinflar). Toshkent. "Qaldirg'och". 2010.

Internet adreslari

30. <http://www.gov.uz> -O'zbekiston Respublikasi Hukumati sayti.
31. <http://www.ZiyoNet.uz> -ZiyoNet sayti.
32. www.Profi.ua -Kasblar haqidagi sayt.
33. <http://www.scool.ua> -O'quv jarayonida axborot texnologiyalari.
34. <http://www.literature.uz> -O'zbek adabiyoti.
35. <http://www.ug.ru> -O'qituvchi gazetasi.

MUNDARIJA

§	Mavzular	Sahifa
I.	Kirish	3

1.1.	Buyuk kelajak sari.....	3
1.2.	Mavzuning dolzarbligi	8
1.3.	Adabiyotlar tahlili	11
II.	Nazariy qism	16
2.1.	O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'llash.	16
2.2.	Darsdan tashqari tadirlarda badiiy asarlardan foydalanib o'quvchilarni kasbga yo'naltirish	26
2.3.	Ilg'or pedagogik texnologiyalar haqida.....	32
III.	Metodika qismi	36
3.1.	Mehnat ta'limi dars mashg'ulotlarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari.	36
3.2.	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda samaradorlikni oshirish uchun tayyorlangan ko'rsatmali materiallar.	39
3.2.1.	Tayyorlangan plakatlar.	39
3.2.2.	Tayyorlangan tarqatmali materiallar.	44
3.3.	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha darsdan tashqari tadbir ssenariysi.	48
IV.	Xulosa	62
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	65
	Ilovalar	69
	INTERNET materiallari.	69







